

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



III SON

2026

Elektron ilmiy-ommabop jurnal

(+998) 50-005-45-69

https://t.me/demografiya_mehnatbozori
demografiya_mehnat_bozori@mail.ru

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2026-yil
3-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный
журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,

Axmedov Durbek Quدراتillaevich, i.f.d., professor

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,

Zokirova Nodira Qalandarovna, i.f.d., prof.,

Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,

Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,

Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor

Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.

Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor

Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor

Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)

Ibragimov Lutfullo Ziyadullayevich, DSc., professor

Qurbonov Paxlavon Rustamovich, DSc, dotsent

Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD

Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich, PhD

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD

MUNDARIJA

Umurzakov Baxodir Xamidovich <i>Demografik jarayonlarni modellashtirish va prognozlashning nazariy- metodologik asoslari.....</i>	3
Qo'ldosheva Gulhayo Muxtor qizi Qurbonov Paxlavon Rustamovich <i>O'zbekiston qishloq aholisining demografik vaziyati va hududiy joylashuvi.....</i>	13
Асқарова Муҳаббат Ибрахимовна <i>Аҳоли миграциясининг тарихий эволюцияси ва глобаллашув шароитида трансмиллий ривожланиш тенденциялари.....</i>	27
Bahriddinova Muazzam Azam qizi <i>Globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasini raqamli texnologiyalar asosida boshqarishni takomillashtirish.....</i>	39
Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich <i>Econometric assessment of the impact of population reproduction processes on the formation of economically active population.....</i>	52
Bahriddinova Muazzam Azam qizi Sayfiddinov Amirxon Davlatovich <i>O'zbekistonda demografik rivojlanishning asosiy tendensiyalari va omillari.....</i>	63
Omanova Kamola Botir qizi Saidova Sevara Yormamat qizi <i>Jahon demografik rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari.....</i>	72
Қиличов Улуғбек Рустам ўғли <i>Ўзбекистонда демографик тенденциялар ўзгариши.....</i>	82

DEMOGRAFIK JARAYONLARNI MODELASHTIRISH VA PROGNOZLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Umurzakov Baxodir Xamidovich

*I.f.d., prof. TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"*

ilmiy tadqiqot markazi

ORCID: 0009-0000-8140-1700

umurzakovboxodir807@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlarni statistik modelashtirish va prognozlashning ilmiy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda aholi soni, tug'ilish, o'lim va nikoh ko'rsatkichlari vaqt qatorlari asosida tahlil qilinib, ularning dinamikasi va rivojlanish tendensiyalari aniqlangan. Demografik ko'rsatkichlarni prognozlashda ARIMA va SARIMA modellari qo'llanilib, ularning samaradorligi baholangan. Tadqiqot natijalari demografik jarayonlarni ilmiy asosda boshqarish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: demografik jarayonlar, modelashtirish, prognozlash, vaqt qatorlari, ARIMA, SARIMA, aholi dinamikasi, statistik tahlil

СТАТИСТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ И ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Умурзаков Баходир Хамидович

Д.э.н., проф. Научно-исследовательский центр

«Научные основы и проблемы развития

экономики Узбекистана» при ТГЭУ

Аннотация: В данной статье исследованы научные основы статистического моделирования и прогнозирования демографических процессов в Республике Узбекистан. В работе проанализированы показатели численности населения, рождаемости, смертности и брачности на основе временных рядов, а также определены их динамика и тенденции развития. Для прогнозирования демографических показателей использованы модели

ARIMA u SARIMA, effektivnost' kotorykh byla ocenena. Poluchennyye rezultaty imenut vazhnoe znachenie dlya nauchno obosnovannogo upravleniya demograficheskimi protsessami i razrabotki sotsialno-ekonomicheskikh strategiy.

Ключевые слова: демографические процессы, моделирование, прогнозирование, временные ряды, ARIMA, SARIMA, динамика населения, статистический анализ

ECONOMETRIC MODELING AND FORECASTING OF DEMOGRAPHIC PROCESSES: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN

Umurzakov Bakhodir Khamidovich

Prof. Scientific research center "Scientific foundations and problems of the development of the economy of Uzbekistan" under TSUE

Abstract: This article examines the scientific foundations of statistical modeling and forecasting of demographic processes in Uzbekistan. The study analyzes population size, birth, death, and marriage indicators using time series methods, identifying their dynamics and development trends. ARIMA and SARIMA models are applied to forecast demographic indicators, and their effectiveness is evaluated. The results contribute to evidence-based management of demographic processes and the development of socio-economic strategies.

Keywords: demographic processes, modeling, forecasting, time series, ARIMA, SARIMA, population dynamics, statistical analysis

Kirish.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish hamda inson kapitalini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar tizimli xarakter kasb etib, demografik jarayonlar va mehnat resurslarini samarali boshqarishning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son qarori aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishni yangi bosqichga olib chiqishga

qaratilgan bo'lib, unda mehnat resurslaridan samarali foydalanish va iqtisodiy faollikni oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bilan birga, yoshlar va xotin-qizlar bandligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda aholini daromad manbalari bilan ta'minlashga qaratilgan qator qaror va farmonlar mazkur yo'nalishdagi davlat siyosatini yanada kuchaytirmoqda.

Bundan tashqari, "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida inson kapitalini rivojlantirish, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Ushbu strategik hujjatlar demografik jarayonlarni chuqur tahlil qilish va ularni ilmiy asosda boshqarish zaruratini yanada oshirmoqda.

Shu bilan birga, aholi sonining o'sishi, uning yosh tarkibidagi o'zgarishlar hamda mehnat bozorida nomutanosibliklar mavjud davlat siyosatini yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Demografik jarayonlar iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular bandlik, ijtimoiy himoya, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi sharoitda demografik jarayonlarni chuqur tahlil qilish, ularning kelgusidagi rivojlanish tendensiyalarini prognozlash hamda davlat siyosatini ilmiy asosda shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aholi sonining barqaror o'sishi, qarish jarayonining tezlashuvi va migratsiya oqimlarining faollashuvi ushbu yo'nalishda kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundan iboratki, u O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar doirasida demografik jarayonlarni ilmiy asosda tahlil qilish va ularni samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Demografik jarayonlar va ularni tahlil qilish masalalari ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalishning nazariy asoslari bir qator olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Demografiya fanining shakllanishida Graunt J., Halley E. kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular aholi o'limi va umr davomiyligini statistik usullar asosida tahlil qilib, demografik tadqiqotlarning dastlabki ilmiy asoslarini yaratgan [1]. Aholi sonining o'sishi va uning iqtisodiy resurslar bilan o'zaro bog'liqligi masalalari Malthus T. tomonidan asoslab berilgan bo'lib, u demografik jarayonlarning

iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini ko'rsatib bergan [2]. Ushbu yondashuv keyinchalik zamonaviy demografik nazariyalarning shakllanishiga asos bo'ldi. Migratsiya jarayonlarini ilmiy jihatdan o'rganishda Ravenstein E. tomonidan ishlab chiqilgan migratsiya qonunlari alohida o'rin egallaydi. U migratsiya oqimlarining hududiy va iqtisodiy omillar bilan bog'liqligini asoslab bergan [3].

Mahalliy olimlar tomonidan ham demografik jarayonlar va mehnat resurslari shakllanishi masalalari chuqur tadqiq etilgan. Xususan, Abdurahmonov Q.X. o'z ilmiy ishlarida mehnat resurslari va demografik omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni asoslab bergan hamda ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tahlil qilgan [4].

So'nggi yillarda demografik jarayonlarni o'rganishda zamonaviy statistik va ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanish kengayib bormoqda. Jumladan, ARIMA va SARIMA modellari yordamida aholi soni, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarini prognozlash imkoniyati ilmiy jihatdan asoslangan. Shu bilan birga, demografik jarayonlarni boshqarishda davlat siyosatining roli ham ortib bormoqda. Normativ-huquqiy hujjatlar asosida aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar demografik rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarda demografik jarayonlarni normativ-huquqiy asoslar bilan uyg'unlashtirib kompleks tahlil qilish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlarni tahlil qilish va prognozlash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotda rasmiy statistik ma'lumotlar asosida vaqt qatorlari tahlili amalga oshirilib, ularning stasionarligi ADF va KPSS testlari yordamida tekshirildi. Demografik ko'rsatkichlarni modellashtirishda ARIMA va SARIMA modellari qo'llanilib, ularning parametrlari ACF va PACF funksiyalari asosida aniqlandi. Model sifatini baholashda RMSE, MAPE va MAE kabi mezonlardan foydalanildi. Olingan natijalar tizimli va taqqoslama tahlil asosida umumlashtirilib, demografik jarayonlarning rivojlanish tendensiyalari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tahlil va natijalar.

Demografik jarayonlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil hisoblanib, ular aholi soni, yosh-jins tarkibi hamda tabiiy harakat ko'rsatkichlari orqali namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonlarni chuqur tahlil qilish va ularning kelgusidagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlash davlat siyosatini samarali shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida aholi soni so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Prognozlarga asosan, kelgusi 30 yil davomida mamlakat aholisi sezilarli darajada ortib, 43 milliondan 46,8 million nafargacha yetishi kutilmoqda, eng ehtimoliy ko'rsatkich esa 44,8 millionni tashkil etadi. Ushbu o'sish demografik jarayonlarning ijobiy dinamikasini aks ettiradi. Shu bilan birga, aholi o'sish sur'atlarida ma'lum darajada pasayish kuzatilishi prognoz qilinmoqda. Xususan, dastlabki yillarda yillik o'sish darajasi 1,6 foizdan 1,0 foizgacha kamayishi, keyingi davrda esa nisbatan barqarorlashuvi kutilmoqda. Bu holat, asosan, aholi yosh tarkibidagi o'zgarishlar va tug'ilish darajasining sekinlashuvi bilan izohlanadi.

Demografik jarayonlarning muhim xususiyatlaridan biri aholi tarkibidagi sifat o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Xususan, aholining qarish jarayoni kuchayib borayotganligi, keksalar ulushining ortishi hamda mehnatga layoqatli aholi tarkibida muayyan siljishlar yuz berishi kuzatilmoqda. Bu esa ijtimoiy himoya tizimi, sog'liqni saqlash va pensiya ta'minoti tizimlariga qo'shimcha yuklama keltirib chiqaradi.

Shuningdek, demografik dinamikaga migratsiya jarayonlari ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Prognozlarga ko'ra, kelgusi yillarda migratsiya chiqimining ortishi kuzatilishi mumkin bo'lib, ayrim davrlarda yiliga 40 ming nafargacha yetishi ehtimoli mavjud. Biroq, shunga qaramay, umumiy aholi sonining o'sish tendensiyasi saqlanib qoladi. Umuman olganda, demografik jarayonlar dinamikasi O'zbekiston Respublikasida barqaror ijobiy o'sish bilan birga, tarkibiy o'zgarishlar bilan ham tavsiflanadi. Bu esa ushbu jarayonlarni chuqur ilmiy asosda tahlil qilish va ularni samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Demografik jarayonlarni chuqur tahlil qilish va ularning kelgusidagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlashda matematik va statistik modellash tirish usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, vaqt qatorlari asosida prognozlash usullari demografik ko'rsatkichlarning dinamikasini aniqlashda keng qo'llaniladi.

Demografik ko'rsatkichlar, jumladan tug'ilish, o'lim va nikoh jarayonlari vaqt bo'yicha o'zgarib boruvchi ko'rsatkichlar sifatida qaralib, ular vaqt qatorlari ko'rinishida ifodalanadi. Vaqt qatorlari quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topadi: trend, mavsumiylik, sikliklik va tasodifiy tebranishlar. Ushbu komponentlarni ajratib ko'rsatish demografik jarayonlarni aniqroq tahlil qilish imkonini beradi.

Vaqt qatorlarini modellashtirishda eng muhim bosqichlardan biri ularning stasionarligini tekshirish hisoblanadi. Stasionar vaqt qatori quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

$$E(y_t) = \mu, Var(y_t) = \sigma^2, Cov(y_t, y_{t-k}) = \gamma_k$$

Agar ushbu ko'rsatkichlar vaqt davomida o'zgarsa, qator nostaционар hisoblanadi va uni differensiallash orqali stasionar holatga keltirish zarur.

Demografik jarayonlarni prognozlashda keng qo'llaniladigan modellardan biri ARIMA modeli hisoblanadi. Ushbu model nostaционар vaqt qatorlarini tahlil qilish imkonini beradi va quyidagi umumiy ko'rinishga ega:

$$ARIMA(p, d, q)$$

bu yerda:

- p — avtoregressiya tartibi,
- d — differensiallash darajasi,
- q — siljuvchi o'rtacha tartibi.

ARIMA modelining umumiy tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$y_t = c + \sum_{i=1}^p \phi_i y_{t-i} + \sum_{j=1}^q \theta_j \varepsilon_{t-j} + \varepsilon_t$$

Mazkur model yordamida demografik ko'rsatkichlarning vaqt bo'yicha o'zgarishini aniqlash va kelgusidagi qiymatlarini prognozlash mumkin.

Biroq demografik vaqt qatorlarida ko'pincha mavsumiy tebranishlar mavjud bo'lganligi sababli, ularni yanada aniqroq modellashtirish uchun SARIMA modeli qo'llaniladi. Ushbu model ARIMA modelining kengaytirilgan ko'rinishi bo'lib, mavsumiy komponentlarni ham hisobga oladi:

$$SARIMA(p, d, q)(P, D, Q)_s$$

bu yerda:

- (P, D, Q) — mavsumiy parametrlar,
- s — mavsumiy davr uzunligi.

Mazkur yondashuv demografik jarayonlarda kuzatiladigan mavsumiy o'zgarishlarni aniqlash va prognozlashda yuqori aniqlikni ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari mavsumiy tebranishlarga ega bo'lib, ularni modellashtirishda SARIMA modelidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu esa prognoz aniqligini oshirish va demografik jarayonlarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, matematik modellashtirish usullaridan foydalanish demografik jarayonlarni nafaqat tahlil qilish, balki ularni ilmiy asosda prognozlash va boshqarish imkonini beradi. Bu esa davlat darajasida strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Demografik jarayonlarni prognozlash jarayonida vaqt qatorlari asosida ishlab chiqilgan ARIMA va SARIMA modellari qo'llanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, demografik ko'rsatkichlar, xususan tug'ilish, o'lim va nikoh jarayonlari o'ziga xos dinamik xususiyatlarga ega bo'lib, ularni modellashtirishda turli yondashuvlarni qo'llash zarur.

Tug'ilish ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu vaqt qatori ikkinchi tartibli integratsiyaga ega bo'lib, ya'ni differensiallash darajasi $d = 2$ ni tashkil etadi. Shu bilan birga, tug'ilish jarayonida aniq ifodalangan mavsumiy tebranishlar kuzatildi. Natijada optimal model sifatida quyidagi SARIMA konfiguratsiyasi tanlandi:

$$SARIMA(2,2,1)(1,0,0)_{12}$$

Mazkur modelga mavsumiy o'zgarishlarni hisobga olish maqsadida dammi (dummy) o'zgaruvchilar ham kiritildi. Bu esa modelning prognoz aniqligini sezilarli darajada oshirdi.

Model sifatini baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanildi:

$$RMSE = \sqrt{\frac{1}{h} \sum (\hat{y} - y)^2}$$

$$MAPE = \frac{1}{h} \sum \left| \frac{\hat{y} - y}{y} \right| \cdot 100\%$$

Natijalarga ko'ra:

- **RMSE = 9.43**
- **MAPE = 4.81%**

Ushbu ko'rsatkichlar modelning yuqori aniqlikka ega ekanligini va prognoz natijalarining ishonchliligini tasdiqlaydi.

O'lim ko'rsatkichlarini modellashtirishda esa ARIMA modeli qo'llanildi. Tahlil natijasida optimal model sifatida ARIMA(1,1,1) modeli tanlandi:

$$ARIMA(1,1,1)$$

Mazkur model uchun baholash natijalari quyidagicha bo'ldi:

- **RMSE = 4.54**
- **MAPE = 2.11%**

Bu esa o'lim ko'rsatkichlari bo'yicha prognoz natijalari yanada yuqori aniqlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

Nikoh ko'rsatkichlari tahlili esa kuchli mavsumiylik mavjudligini ko'rsatdi. Shu sababli SARIMA modeli qo'llanilib, quyidagi konfiguratsiya eng optimal deb topildi:

$$SARIMA(2,1,0)(3,1,0)_{12}$$

Biroq ushbu model uchun MAPE ko'rsatkichi nisbatan yuqori (21.94%) bo'lib, bu ayrim davrlarda prognoz xatoliklarining mavjudligini ko'rsatadi.

Model natijalarining ishonchliligini tekshirish maqsadida qoldiqlar tahlili amalga oshirildi. Ljung-Box testi natijalari qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjud emasligini ko'rsatdi, ya'ni model qoldiqlari "oq shovqin" xususiyatiga ega bo'ldi. Bu esa modelning adekvatligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, SARIMA va Holt-Winters modellari o'zaro taqqoslandi. Taqqoslash natijalari shuni ko'rsatdiki, barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha SARIMA modeli ustunlikka ega bo'lib, prognoz aniqligi yuqoriroq natijalarni berdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari demografik jarayonlarni modellashtirishda zamonaviy ekonometrik yondashuvlardan foydalanish yuqori samaradorlik berishini ko'rsatdi. Bu esa demografik prognozlarning aniqligini oshirish va davlat siyosatini ilmiy asosda shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa.

Mazkur tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar kompleks yondashuv asosida tahlil qilinib, ularning dinamikasi va

rivojlanish tendensiyalari ilmiy asosda baholandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mamlakatda aholi sonining barqaror o'sishi bilan bir qatorda, uning yosh tarkibida muhim tarkibiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, aholining qarish jarayoni kuchayib borayotgani hamda mehnatga layoqatli aholi ulushidagi o'zgarishlar ijtimoiy-iqtisodiy tizimga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, kelgusi yillarda aholi sonining o'sishi davom etishi kutilayotgan bo'lsa-da, o'sish sur'atlarining pasayish tendensiyasi kuzatiladi. Shu bilan birga, migratsiya jarayonlarining faollashuvi ham demografik dinamikaga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu holat mehnat resurslarini boshqarish va iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Tadqiqot jarayonida demografik ko'rsatkichlarni prognozlashda ARIMA va SARIMA modellari qo'llanilib, ularning yuqori prognoz aniqligiga ega ekani aniqlandi. Xususan, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari bo'yicha ishlab chiqilgan modellarning natijalari real statistik ma'lumotlar bilan yuqori darajada mos kelishi ularning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, demografik jarayonlarni boshqarishda normativ-huquqiy asoslarning roli alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish hamda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati demografik rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa demografik jarayonlarni faqat statistik hodisa sifatida emas, balki davlat tomonidan boshqariladigan ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, demografik jarayonlarni modellashtirish va prognozlash natijalari ularni chuqur tahlil qilish, salbiy tendensiyalarni oldindan aniqlash hamda samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois kelgusida demografik siyosatni shakllantirishda ilmiy asoslangan prognoz modellari va zamonaviy statistik usullardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. PQ-12, 17.01.2025.*

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida Davlat dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi Farmoni. PF-37, 21.02.2024.*

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. – Toshkent, 2024–2025.
4. Graunt J. *Natural and Political Observations Made upon the Bills of Mortality*. – London, 1662.
5. Halley E. *An Estimate of the Degrees of the Mortality of Mankind* // *Philosophical Transactions*. – 1693.
6. Malthus T.R. *An Essay on the Principle of Population*. – London, 1798.
7. Ravenstein E.G. *The Laws of Migration* // *Journal of the Statistical Society*. – 1885.
8. Abdurahmonov Q.X. *Mehnat iqtisodiyoti*. – Toshkent: Fan, 2021.
9. Box G.E.P., Jenkins G.M., Reinsel G.C. *Time Series Analysis: Forecasting and Control*. – New York: Wiley, 2015.
10. Hamilton J.D. *Time Series Analysis*. – Princeton: Princeton University Press, 1994.
11. Hyndman R.J., Athanasopoulos G. *Forecasting: Principles and Practice*. – Melbourne, 2018.
12. Chatfield C. *The Analysis of Time Series: An Introduction*. – London: CRC Press, 2016.
13. Gujarati D.N. *Basic Econometrics*. – New York: McGraw-Hill, 2012.
14. Brockwell P.J., Davis R.A. *Introduction to Time Series and Forecasting*. – Springer, 2016.
15. World Bank. *World Development Indicators*. – Washington DC, 2023.

O'ZBEKISTON QISHLOQ AHOLISINING DEMOGRAFIK VAZIYATI VA HUDUDIIY JOYLASHUVI

Qo'ldosheva Gulhayo Muxtor qizi

Qarshi davlat universiteti doktoranti

Qurbonov Paxlavon Rustamovich

Qarshi davlat universiteti

Geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.d. (DSc).

Orcid: [0009-0004-3128-0663](https://orcid.org/0009-0004-3128-0663)

e-mail: Pahlavon82@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi qishloq aholisining 1991-2026-yillar davomidagi demografik dinamikasi va hududiy joylashuvi tadqiq etilgan. Qishloq aholisining o'zgarishi uch bosqichi yuqori sur'atli o'sish (1991-2008), ma'muriy qayta tuzilish (2009) va tiklanish davri (2010–2026) asosida tahlil qilingan. 35 yil davomida respublika qishloq aholisi 12 302,5 mingdan 18 765,0 ming nafarga (152,5%) oshgan bo'lib, viloyatlar kesimida CAGR 0,44–1,73% oralig'ida kuzatilgan. Qishloq tumanlarining demografik tafovuti konsentratsiya tahlili orqali o'rganilib, Jini koeffitsiyenti $G \approx 0,29$ ekanligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari mintaqaviy demografik siyosat va qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlari uchun amaliy tavsiyalar bilan yakunlangan.

Kalit so'zlar: qishloq aholisi, demografik dinamika, urbanizatsiya, CAGR, Jini koeffitsiyenti, hududiy tafovut, O'zbekiston

ДЕМОГРАФИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ И ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ РАЗМЕЩЕНИЕ СЕЛЬСКОГО НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Кулдошева Гулхаё Мухтар кизи

Докторант Каршинского государственного университета

Курбонов Пахлавон Рустамович

Доцент кафедры географии

Каршинского государственного университета, д.г.н.

Аннотация. В статье исследованы демографическая динамика и территориальное размещение сельского населения Республики Узбекистан за 1991-2026 годы. Изменение численности сельского населения рассмотрено в рамках трёх этапов: интенсивного роста (1991-2008), административной реорганизации (2009) и возобновления роста (2010-2026). За 35 лет сельское население увеличилось с 12 302,5 тыс. до 18 765,0 тыс. человек (152,5%), при этом показатель CAGR по регионам варьируется от 0,44% до 1,73%. Демографическая дифференциация сельских районов изучена методом концентрационного анализа; рассчитанный коэффициент Джини составил $G \approx 0,29$. По результатам исследования сформулированы практические рекомендации в области региональной демографической политики и сельского развития.

Ключевые слова: сельское население, демографическая динамика, урбанизация, CAGR, коэффициент Джини, территориальная дифференциация, Узбекистан

DEMOGRAPHIC SITUATION AND TERRITORIAL DISTRIBUTION OF THE RURAL POPULATION OF UZBEKISTAN

Quldosheva Gulhayo Mukhtar qizi

Doctoral Researcher, Karshi State University

Kurbonov Paxhlavon Rustamovich

*Associate Professor, Department of Geography,
Karshi State University, Doctor of Geographical Sciences (DSc)*

Abstract. This article examines the demographic dynamics and territorial distribution of the rural population of the Republic of Uzbekistan over the period 1991–2026. Changes in rural population are analysed across three stages: high-rate growth (1991–2008), administrative reorganisation (2009), and renewed growth (2010–2026). Over 35 years, the rural population increased from 12,302.5 thousand to 18,765.0 thousand persons (152.5%), with regional CAGR values ranging from 0.44% to 1.73%. The demographic differentiation of rural districts is examined through concentration analysis, yielding a Gini coefficient of $G \approx 0.29$. The findings

are accompanied by practical recommendations for regional demographic policy and rural development programmes.

Keywords: *rural population, demographic dynamics, urbanisation, CAGR, Gini coefficient, territorial differentiation, Uzbekistan*

Kirish.

Jahon miqyosida urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida qishloq aholisining demografik dinamikasi va hududiy joylashuvi masalalari ilmiy-amaliy ahamiyatini tobora oshirmoqda. BMTning 2023 yilgi ma’ruzasiga ko’ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq aholisining shaharga ko’chishi jarayoni tezlashib borayotgan bo’lsa-da, Markaziy Osiyo mamlakatlarida, xususan O’zbekistonda, bu tendensiya o’ziga xos xususiyatlarni namoyon etmoqda. O’zbekiston Respublikasi aholisining 49,1 foizi (2026 y.) haligacha qishloq joylarda istiqomat qilishi mamlakatni jahon urbanizatsiya jarayonidan sezilarli darajada ajratib turadi.

O’zbekiston mustaqillikka erishgan 1991 yildan buyon qishloq aholisi sonida murakkab va ko’p bosqichli o’zgarishlar kuzatilmoqda. Mazkur jarayonni shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin: birinchi bosqichda (1991-2008-yillar) qishloq joylarda yuqori tabiiy o’sish va shaharlardan teskari migratsiya oqimi kuzatilgan; ikkinchi bosqich (2009-yil) da ma’muriy-hududiy qayta tuzilish - 966 ta qishloq joyga shaharcha maqomining berilishi qishloq aholisi sonini 25,5 foizga kamaytirgan; uchinchi bosqich (2010-2026-yillar) da esa qishloq aholisining yangi o’sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ushbu jarayonlarning hududiy tafovutlari va geografik qonuniyatlari hali to’liq ilmiy tahlil etilmagan.

Mavzuning dolzarbligi bir qancha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, 2030 yilgacha bo’lgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasida qishloq hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor yo’nalishiga aylangan. Ikkinchidan, O’zbekiston Respublikasida “Yangi O’zbekiston” strategiyasi doirasida mintaqalarni mutanosib rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Uchinchidan, qishloq tumanlaridagi demografik jarayonlarni aniq miqdoriy usullar bilan tahlil etish, samarali infratuzilma rejalashtirish va ijtimoiy xizmatlarni optimal joylashtirish uchun zaruriy ilmiy asos yaratadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi O’zbekiston Respublikasi qishloq aholisining 1991-2026-yillar davomidagi demografik dinamikasini va hududiy joylashuvini

kompleks tahlil etish, viloyatlar hamda tumanlar kesimidagi tafovutlarni aniqlash va mintaqaviy demografik siyosat uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili.

Qishloq aholisining demografik dinamikasi va hududiy joylashuvi masalalari xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda keng o‘rin tutadi. Demografik o‘tish nazariyasi (F.W. Notestein, 1945; K. Davis, 1963) nuqtai nazaridan O‘zbekiston, xususan uning janubiy viloyatlari, haligacha uchinchi bosqich demografik o‘tish jarayonida, ya’ni to‘liq o‘rtacha darajada tug‘ilish ko‘rsatkichi pasayish yo‘lida, ammo o‘lim ko‘rsatkichidan yuqorida turibdi. Ushbu holat O‘zbekiston uchun mos holatni J.C.Caldwell (1976) ning “oilaviy iqtisodiyot nazariyasi” va G.S.Becker (1981) ning “oila mikroiktisodiyoti” nazariy konsepsiyasi orqali tushuntirish mumkin.

Urbanizatsiya nazariyasi sohasida meksikalik olim H.Zlotnik (2004) ning “jozibadorlik va itarish omillari” (push-pull) konsepsiyasi hamda K.Davis (1965) ning “o‘ta urbanizatsiya” nazariyasi O‘zbekiston uchun nisbiy tetishli model hisoblanadi. Biroq ushbu klassik modellar mamlakatdagi davlat tomonidan boshqarilgan “ma‘muriy urbanizatsiya” hodisasini to‘liq izohlay olmaydi.

Markaziy Osiyo va MDH doirasidagi tadqiqotlar. Postsovet makonida qishloq aholisining dinamikasini o‘rgangan G.Ioffe va T. Nefedova (2004) Rossiya qishloqlarining “ichdan bo‘shab qolishi” fenomenini tahlil etgan bo‘lsa, mazkur jarayon O‘zbekistonda teskari ko‘rinishda, ya’ni qishloq aholisining nisbiy barqarorligi va o‘sishida namoyon bo‘lmoqda. Amerika Qo‘shma shtatlari Texas universiteti demograf va sotsiologi C.Buckley 1995-yilda postsovet mamlakatlaridagi demografik o‘tish jarayonini taqqoslab, O‘zbekistonni o‘ziga xos “demografik istisno” sifatida ajratib ko‘rsatgan.

Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha J. Falkingham (2000) ning Qirg‘iziston va Tojikiston qishloq aholisiga bag‘ishlangan tadqiqoti, A.V.Korotayev va D.A.Xalturina (2009) ning Markaziy Osiyodagi demografik tendensiyalarga oid ishlari mazkur mavzu uchun muhim qiyosiy material sifatida xizmat qiladi. O‘zbekistonlik olimlardan A.Soliyev va M.Nazarov (2009) ning “O‘zbekiston qishloqlari”, A.U.Sattorov, B.O.Abdumo‘minovlarning “Surxondaryo viloyati qishloq aholi manzilgohlarining rivojlanish va joylashish xususiyatlari”

monografiyalari qishloq joylar geografiyasi bo'yicha asosiy manba bo'lib, mazkur tadqiqot uchun metodologik tayanch vazifasini o'taydi.

Yuqoridagi adabiyotlarlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston qishloq aholisining hududiy tafovutlari viloyat darajasida ma'lum darajada o'rganilgan, biroq tuman darajasidagi miqdoriy tahlil, konsentratsiya indeksleri va CAGR metodologiyasini birlashtirgan kompleks tadqiqotlar hali yetarlicha amalga oshirilmagan. Ushbu tadqiqot mazkur ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda maqsadga muvofiq ravishda bir-birini to'ldiruvchi ilmiy usullarning majmuasidan foydalanilgan. Tadqiqotning asosiy empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 1991–2026 yillarga oid aholi soni bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlari tashkil etadi. Ma'lumotlar 13 ta ma'muriy birlik (12 viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi) va 163 ta qishloq tumani kesimida yig'ilgan hamda verifikatsiya qilingan.

Miqdoriy tahlil usullari. Viloyatlar va tumanlar kesimida aholi o'sishini baholashda CAGR (Compound Annual Growth Rate) ko'rsatkichi qo'llanilgan, formula: $CAGR = (EV/BV)^{(1/n)} - 1$, bu yerda BV — boshlang'ich qiymat, EV — yakuniy qiymat, n — vaqt oralig'i (yil). Ushbu usul oddiy o'sish sur'atidan farqli ravishda davriy tebranishlarni hisobga olib, hududlararo solishtirma tahlil uchun metodologik aniqlikni ta'minlaydi.

Guruhlash usuli. Qishloq tumanlari aholi soniga ko'ra besh guruhga ajratilgan: 50,0 ming kishigacha; 50,1–100,0 ming; 100,1–150,0 ming; 150,1–200,0 ming; 200,1 mingdan ortiq. Guruhlash intervali 50 ming kishilik birlikda belgilangan bo'lib, bu ijtimoiy xizmatlar (ta'lim, tibbiyot, ma'muriyat) uchun optimal xizmat ko'rsatish miqyosini aniqlashga imkon beradi.

Tahlil va natijalar muhokamasi (asosiy qism).

O'zbekiston Respublikasi qishloq aholisi 1991-yildan 2026-yilgacha bo'lgan 35-yillik davr mobaynida 12302,5 ming nafardan 18765,0 ming kishiga yoki taxminan bir yarim baravardan ortiqroqqa (152,5 %) o'sgan. Aynan shu davrda respublika jami aholisi 20607,7 mingdan 38236,7 mingga, shahar aholisi esa 8305,2 ming kishidan 19471,7 ming nafarga ko'paygan (tegishlicha, o'sishi 185,5 va 234,5 %). Mazkur ma'lumotlardan respublika jami aholisi va shahar aholisining o'sishi, qishloq aholisi o'sishidan ancha yuqori darajada bo'lganligini ko'rish

mumkin. Ammo bu tahlillar ancha yuzaki bo'lib, aslida shaharlarga nisbatan qishloq joylarda tabiiy ko'payishning yuqori ekanligi, migratsion faollikning pastligi qishloq aholisining barqaror o'sishiga olib kelgan. Mazkur nomutanosiblikni tushuntirish uchun tadqiqotda mustaqillik yillarida qishloq aholisi o'zgarishini shartli ravishda 3 bosqichga ajratildi.

1-bosqich. Birinchi (17 yillik) davr qishloq aholisi yuqori sur'atlarda o'sgan 1991-2008-yillarni o'z ichiga oladi. Ushbu davrda respublika qishloq aholisining o'sish darajasi 141,2 foizga teng bo'lgan holda, jami aholi 131,4 foizni, shahar aholisining o'sishi atigi 116,7 foizni tashkil etgan. Bunga bir necha sabablar mavjud bo'lib, eng avvalo qishloq joylarda tug'ilish ko'rsatkichlarining yuqoriligi, mustaqillikning dastlabki yillaridagi respublika yirik shaharlarida yashovchi rusiyzabon aholining ommaviy ko'chib ketishi, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar natijasida ichki migratsiyaning qishloqlar foydasiga xizmat qilganligi keltirish mumkin [2].

2-bosqich. "2009-yil-urbanistik inqilob yili". Respublikada 2009 yil "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi" yili deb belgilandi, bunda asosiy e'tibor, qishloq aholi manzilgohlarida sanoat (asosan yengil va oziq ovqat) tarmoqlarini joylashtirish va shu asosda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, qishloqlarni toza ichimlik suvi, tabiiy gaz, transport va boshqa infratuzilma shaxobchalari bilan ta'minlanishini yanada yaxshilashga qaratildi va ushbu maqsadlarga erishish maqsadida "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi" yili Davlat dasturi qabul qilindi. Dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2009-yil 13-martda "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy – hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi qaroriga asosan 966 ta qishloq joylarga shaharcha maqomi berildi [1]. Bu jarayon o'z navbatida qishloqlar soning 10 foizga, qishloq aholisining esa 25,5 foizga qisqarishiga olib keldi. Shu sababli ham 2009-yilni o'ziga xos ma'muriy-siyosiy jarayon natijasida qishloq aholisi dinamikasiga katta ta'sir ko'rsatgan davr sifatida ajratib ko'rsatish lozim deb hisoblaymiz.

3-bosqich. Ikkinchi (17 yillik) davr 2010-2026-yillardan iborat. O'zbekiston Respublikasida 2026-yil yanvar holatida jami 38236,7 ming aholi mavjud bo'lib, shundan 18765,0 ming nafari yoki 49,1 foizini qishloq aholisi tashkil etadi (2010 yilda mazkur ko'rsatkichlar tegishli 28001,4 ming,

13575,5 ming yoki 48,4 foiz). Mazkur ma'lumotlar tahlilidan o'tgan 17 yillik davrda jami aholi 136,5 foizga, shahar aholisi 135,0 foizga, qishloq aholisi esa 138,2 foizga o'sganligini, ya'ni jami va shahar aholisi o'sishiga nisbatan qishloq aholisi tezroq ko'payotganligini ko'rishimiz mumkin. Urbanizatsiya jarayonlarni jadallashtirish maqsadida 2009 yilda qishloq aholi manzilgohlariga ommaviy "shaharcha" maqomi berilishi, yirik va o'rta shaharlarni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilayotganligi va shaharlarga ichki aholi migratsiyani qo'llab quvvatlanayotganiga qaramasdan qishloqlar aholisi ulushi tobora ortib bormoqda [3]. Ammo, jahonda, ayrim kichik orol mamlakatlarni hisobga olmaganda bu holatning teskarisi, ya'ni shahar aholisi hissassi ortib borishi kuzatilmoqda. Respublikadagi mazkur "anomal" holatni qishloq aholisi o'rtasidagi tabiiy ko'payishning yuqoriligi, qishloq-shahar ichki migratsiyasining sust ekanligi, qishloq joylarda yashash xarajatlarining ancha past ekanligi, mahalliy urf odatlarning natijasi sifatida talqin etish mumkin (1-jadval).

Respublika qishloq aholisining hududlararo joylashuvida yaqqol tafovutlar mavjud. 2026-yil ma'lumotlariga ko'ra Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlariga umumiy qishloq aholisining 36,4 foizi to'g'ri kelmoqda. Bu borada Samarqand viloyati alohida ajralib turib, unda respublika qishloq aholisining 15 foizi yoki 2 782,8 ming nafari istiqomat qiladi. Umaman olganda, Janubiy-Markaziy o'q (Qashqadaryo + Surxondaryo + Samarqand) viloyatlari barqaror yuksalish tendensiyasini saqlab, uchala viloyatda ham CAGR 1,54–1,73% oralig'ida kuzatilmoqda. Bu Janubiy O'zbekistonda qishloq aholisining nisbatan barqaror bo'lib qolayotganini ko'rsatadi.

Qishloq aholisida eng kam ulushga ega viloyatlar uchligiga, tabiiy sharoiti qishloq xo'jaligi yuritish nuqtai nazardan qulay bo'lmagan, shuningdek, umumiy aholi soni ham kam bo'lgan Jizzax, Navoiy va Sirdaryo kiradi. Ularda respublika jami aholisining 1/10 qismi to'g'ri keladi.

Farg'ona vodiysi (Andijon, Namangan, Farg'ona) ziddiyatli ko'rinishni namoyish etmoqda: yuqori boshlang'ich zichlikka qaramay, eng past CAGR ko'rsatkichlari kuzatilmoqda. Bu migratsion bosim va urbanizatsiyaning jadalligi bilan izohlanadi.

1 -jadval

O'zbekiston Respublikasi qishloq aholisi soni dinamikasi (1991-2026 yillar)

		1991	1996	2001	2006	2011	2016	2021	2026	1991-2026-yillardagi o'rtacha o'sishi k
	O'zbekiston Respublikasi	12302,5	14138,4	15587,8	16817,6	13558,4	15611,4	17048,5	18765,0	1,21
1	Qoraqal-pog'iston Respublikasi	660,3	732,8	788,6	808,0	818,9	907,9	981,7	1053,6	1,34
2	Andijon	1214,3	1425,3	1550,9	1676,1	1215,4	1389,2	1522,2	1683,0	0,94
3	Buxoro	785,6	904,3	995,1	1075,8	1009,0	1130,2	1231,7	1332,3	1,52
4	Jizzax	566,4	624,2	693,3	736,9	601,7	675,3	750,5	830,0	1,10
5	Navoiy	401,3	446,0	472,0	491,3	430,7	472,8	516,6	563,1	0,97
6	Namangan	960,5	1107,2	1221,4	1321,2	783,1	961,5	1010,0	1120,8	0,44
7	Samarqand	1526,7	1775,6	1982,4	2166,1	1915,8	2228,6	2489,0	2782,8	1,73
8	Sirdaryo	365,2	409,9	442,0	465,4	419,7	449,2	494,2	539,4	1,12
9	Surxondaryo	1077,5	1255,9	1421,1	1554,7	1307,1	1550,4	1709,6	1924,0	1,67
10	Toshkent	1188,6	1315,1	1419,8	1498,2	1292,7	1429,2	1506,0	1585,7	0,83
11	Farg'ona	1528,4	1761,0	1916,7	2069,4	1245,9	1510,9	1667,9	1828,2	0,51
12	Qashqadaryo	1251,6	1458,5	1653,4	1822,9	1511,5	1724,9	1902,6	2133,2	1,54
13	Xorazm	776,1	922,6	1031,1	1131,6	1006,9	1181,3	1266,5	1388,9	1,68

Manba: Jadval O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

¹ $CAGR = (EV / BV)^{1/n} - 1$; bu yerda BV-boshlang'ich qiymat; EV-yakuniy qiymat; n-oraliq vaqt (yil)

Mustaqillik yillarida qishloq aholisining o'rtacha yillik o'sish ko'rsatkichi (inglizcha, Compound annual growth rate-CAGR) respublika bo'yicha 1,21 punktni tashkil etgan holda, viloyatlar doirasida juda katta farqlar mavjud. Jumladan, eng yuqori CAGR ko'rsatkichlari qishloq aholisi soni yuqori va aksincha urbanizatsiyalashuv darajasi past bo'lgan Samarqand (1,73%), Xorazm (1,68%), Surxondaryo (1,67%), Qashqadaryo (1,54%), Buxoro (1,52%) viloyatlarida kuzatilgan. Shuningdek, ushbu viloyatlarda qishloq aholisining nisbatan yuqori tabiiy o'sishi va qishloq-shahar migratsiya saldosinga musbatligi kuzatilmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasida bu ko'rsatkich respublika o'rtacha darajasidan ozroq yuqori bo'lgan holda, qolgan barcha viloyatlarda respublika o'rtachasidan past. Ayniqsa, yuqori demografik salohiyatga ega vodiylar viloyatlari (Namangan-0,44, Farg'ona-0,51, Andijon-0,94) hamda sanoat markazlari bo'lgan Toshkent (0,83%) va Navoiy viloyatlarida bu holat yaqqol ko'rinadi. 2009-yildagi shaharlashuv siyosatining vodiylar viloyatlari qishloq aholisi soniga katta ta'sir ko'rsatganligi, shu bilan birga Farg'ona vodiysi va Toshkent atrofi viloyatlarida urbanizatsiya jarayonining intensivligini, ya'ni qishloq aholisining katta qismining shaharlarga ko'chib o'tishi ham mazkur natijalarga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Shu o'rinda, yana bir o'ziga xos jihat respublika qishloq aholisining 18663,4 ming nafari qishloq tumanlarida va 101,6 ming nafari shaharlarda istiqomat qilmoqda. Odatda, qishloq tumanlari tarkibida shahar, shaharcha va shahar aholisi mavjud bo'lsa, Quvasoy (46,1 ming kishi), Buxoro (25,6 ming kishi), Guliston (23,0 ming kishi) va Xonobod (6,9 ming kishi) shaharlarida qishloq aholisi mavjud.

Mazkur tadqiqotda respublika qishloq tumanlarini tadqiq etishda, ularning jami aholisi emas, maqsaddan kelib chiqqan holda aynan qishloq aholisi soni hisobga olindi hamda shu nuqtai nazardan tumanlar guruhlashtirildi.

2-jadvalda O'zbekistonning 13 ta ma'muriy birliklari bo'yicha qishloq tumanlari aholisi soniga ko'ra miqdoriy guruhlanishi aks ettirilgan. Bu ko'rsatkichlar bir vaqtning o'zida bir nechta geodemografik jarayonlarni aholini hududiy joylashuvi, qishloq hududlarining demografik salohiyati va urbanizatsiya darajasini baholash imkonini beradi. Respublikada qishloq aholisi taqsimlanishi bo'yicha hududlararo keskin tafovutlar mavjud.

2 -jadval

Qishloq tumanlarining qishloq aholi soni bo'yicha guruhlanishi
(2026 y., ming kishi)

Ma'muriy birliklar	Jami, ming kishi ta	Qishloq aholisi soniga ko'ra tumanlar guruhlanishi				
		50.0 ming kishigacha	50.1-100	100.1-150.0	150.1-200.0	200.1 kishidan ortiq
O'zbekiston Respublikasi	18663.4* 163	816.6 27	3545.6 46	5790.1 46	5094.7 30	3416.4 14
Qoraqalpog'iston Respublikasi	<u>1053.6</u> 16	<u>340.4</u> 10	<u>108.1</u> 2	<u>286.9</u> 2	<u>318.2</u> 2	-
Andijon	<u>1676.1</u> 14	<u>42.1</u> 1	<u>427.1</u> 6	<u>393.7</u> 3	<u>331.6</u> 2	<u>481.6</u> 2
Buxoro	<u>1306.7</u> 11	<u>8.9</u> 1	<u>148.4</u> 2	<u>758.7</u> 6	<u>155.0</u> 1	<u>235.7</u> 1
Jizzax	<u>830.0</u> 12	<u>241.7</u> 7	<u>179.7</u> 2	<u>255.5</u> 2	<u>153.1</u> 1	-
Navoiy	<u>563.1</u> 8	<u>74.6</u> 4	<u>97.6</u> 1	<u>221.6</u> 2	<u>169.3</u> 1	-
Namangan	<u>1120.8</u> 11	-	<u>532.6</u> 6	<u>588.2</u> 5	-	-
Samarqand	<u>2782.8</u> 14	-	-	<u>521.6</u> 4	<u>487.0</u> 3	<u>1774.2</u> 7
Sirdaryo	<u>516.4</u> 8	<u>20.1</u> 1	<u>385.4</u> 6	<u>110.9</u> 1	-	-
Surxondaryo	<u>1924.0</u> 14	-	<u>380.9</u> 5	<u>222.1</u> 2	<u>1035.2</u> 6	<u>285.8</u> 1
Toshkent	<u>1585.7</u> 15	-	<u>581.0</u> 7	<u>827.0</u> 7	<u>177.7</u> 1	-
Farg'ona	<u>1782.1</u> 15	<u>33.2</u> 1	<u>280.7</u> 4	<u>775.0</u> 6	<u>489.8</u> 3	<u>203.4</u> 1
Qashqadaryo	<u>2133.2</u> 14	<u>20.1</u> 1	<u>155.6</u> 2	<u>271.1</u> 2	<u>1250.7</u> 7	<u>435.7</u> 2
Xorazm	<u>1388.9</u> 11	<u>35.5</u> 1	<u>268.5</u> 3	<u>557.8</u> 4	<u>527.1</u> 3	-

Маълумот: Jadval O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Izoh: kasr sur'atida shu guruhdagi jami aholi soni, mahrajida – shu guruhga tegishli qishloq tumanlari soni.

*Hisoblash ishlariga shaharlarida yashovchi qishloq aholisi va qishloq tumanlarida yashovchi shahar aholisi ma'lumotlari kiritilmagan.


Jumladan, eng ko'p qishloq aholisi - Samarqand (2 782,8 ming), Qashqadaryo (2 133,2 ming), Surxondaryo (1 924,0 ming) viloyatlariga to'g'ri

kelib, ularda jami respublika qishloq aholisining 36,3 foizini jamlangan. Bu hududlarning demografik ustunligi tarixiy omillar (kadimiy sug'orma dehqonchilik, aholi zichligi), yuqori tug'ilish koeffitsiyenti (janubiy viloyatlarda hali III bosqich demografik o'tish davom etmoqda) va nisbatan past urbanizatsiya sur'ati bilan izohlanadi. Aksincha holatni, Sirdaryo (516,4 ming), Navoiy (563,1 ming), Jizzax (830,0 ming) viloyatlarida ko'rish mumkin. Bu viloyatlar hududiy jihatdan katta, lekin tabiiy-iqlim sharoiti (cho'l zonasi, yangi o'zlashtirilgan sug'orilgan maydonlar) va manfiy migratsiya saldosi tufayli aholi zichligining past ekanligi asosiy sabab bo'lib qolmoqda.

Quyidagi rasmda geodemografik tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan konsentratsiya tahlili usuliga asosan qishloq tumanlari aholi soniga ko'ra har 50,0 ming kishilik farq bilan beshta guruhga ajratildi.

1-rasm.

Qishloq tumanlarining qishloq aholisi soniga ko'ra guruhlanishi



Manba: Rasm O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Birinchi guruh mavjud tumanlarning 16,6 foizini o'zida jamlangan holda, ularga respublika jami qishloq aholisining atigi 4,4 foizi, har bir tumanga o'rtacha 30,2 mingdan aholi to'g'ri kelmoqda. Ikkinchi va uchun guruh tumanlarining ulushi teng (har birida 28,2 %) bo'lsada, qishloq aholisi ulushida katta tafovut mavjud (tegishlicha 19 % va 31 %). Qishloq aholisi soni 150-200 ming bo'lgan keyingi guruhda 30 tuman bor, va ularda jami aholining 27,3 foizi istiqomat qiladi. Respublika qishloq tumanlarida atigi 8,6 foiz ulushga ega bo'lgan 200 ming ortiq qishloq aholisi mavjud 14 ta tumanda umumiy aholining 18,3 foizi to'plangan. Ushbu tumanlarning har biriga o'rtacha 244,0 mingdan qishloq aholisi to'g'ri

keladi. Shu o'rinda, mazkur tadqiqotda ham demografiyadagi Pareto² qoidasiga yaqin ko'rinish, ya'ni, kam sonli yirik tumanlar katta demografik yuk tashishi o'z isbotini topadi [5].

Lorents egri chizig'i nuqtai nazaridan, yuqoridagi 5 ta guruh tumanlariga ularda yashovchi qishloq aholisi ulushi bo'yicha taqsimoti, ya'ni o'rtacha Djini koeffitsiyenti, $G \approx 0,29$ punktga teng bo'lmoqda. Shu o'rinda agar aholi barcha tumanlarga teng taqsimlanganda $G = 0$, aksincha barcha aholi ma'lum bir guruhga to'planib qolganda $G = 1$ ga teng bo'lar edi. $G \approx 0,29$ shuni ko'rsatadiki, yirik tumanlar guruhi (150–200 ming va 200 mingdan ortiq) aholining katta qismini o'ziga tortgan, kichik tumanlar (50 minggacha) esa nisbatan kam, ammo bu tengsizlik havotirli darajada emas.

Respublika qishloq tumanlari aholi soniga ko'ra guruhlarining hududiy tafovutlari ham ancha katta. Jumladan, Samarqand viloyatidagi 14 ta tumanning 7 tasi – Urgut, Pastdarg'om, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Ishtixon, Payariq, Tayloq tumanlarining har birida 200 mingdan ortiq aholi yashaydi, ya'ni respublikadagi ushbu guruh tumanlarning 50 foizi aynan shu viloyatga tegishli. Aksincha, 50.0 ming kishigacha va 50.1-100 minglik guruhlarda birorta tuman tuman mavjud emas. Bu holatni Samarqand viloyati, qadimdan sug'orma dehqonchilik rayoni hamda tarixan Ipak yo'lidagi asosiy savdo markazi sifatida aholining yuqori darajada mujassamlashganligi bilan izohlanadi. Bunga teskari holatni, Mirzacho'lni o'zlashtirish natijasida tashkil etilgan Sirdaryo viloyatida ko'rish mumkin. Viloyatdagi 8 ta tumandan faqatgina Boyovut 110,9 ming nafar qishloq aholisiga ega bo'lsa, 6 ta tumanda 50,1-100 ming aholi, Oqoltin tumanida esa bor-yo'g'i 20,1 ming qishloq aholisi mavjud. Iyerarxik pog'onaning yuqori guruhlariga taalluqli tumanlar esa umuman yo'q (1-rasm).

Xuddi shunday noto'liq iyerarxik pog'anaga ega hududlar safiga Qoraqalg'og'iston Respublikasi, Jizzax, Navoiy, Namangan, Surxondaryo, Toshkent va Xorazm viloyatlarini ham kiritish mumkin. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 16 ta tumanning 10 tasida qishloq aholisi 50 mingdan kam yoki respublika bo'yicha ushbu guruh tumanlarining 37 foizi shu hududga to'g'ri keladi. Bu Orol dengizi ekologik falokatining qishloq hududlari rivojlanishiga salbiy ta'siri bilan bog'liq. Qishloq xo'jalik yerlarining sho'rlanishi, suv

² **Pareto qoidasi** (80/20 qoidasi) – italyalik iqtisodchi Vilfredo Pareto nomi bilan atalgan qonuniyat bo'lib, u 1906-yilda Italiyada yerga egalikni o'rganib, aholining 20% qo'lida yerlarning 80% ekanligini kashf etgan. Ya'ni prinsip bevosita demografiya va ijtimoiy statistikadan chiqib kelgan.

yetishmasligi muammosi va ommaviy migratsiya (ayniqsa 1990-2010-yillar) aholini, ayniqsa qishloq aholisini kamaytirgan. Namangan va Toshkent viloyatlari ham noodatiy tuzilishga ega, ularda eng kichik va eng katta guruhlariga tegishli tumanlar umuman mavjud emas. Andijon, Buxoro, Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlarigina to'liq barcha guruhlarda tumanlari mavjud viloyatlar hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston respublikasi qishloq aholisi so'nggi 35-yillik o'rtacha o'sish ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda, 2030-yilga kelib taxminan 19,7–20,2 million kishiga yetishi kutilmoqda. Biroq bunda ikkita cheklovchi omil - urbanizatsiyaning hukumat dasturlari asosida rivojlanib borishi va ishchi kuchi migratsiyasining davom etishini ham hisobga olish zarur. O'zbekiston qishloq hududlari o'rtasida differensial farqlar ortib bormoqda. Jumladan, shimoliy-g'arbiy va janubiy viloyatlar qishloq aholisini saqlab qolsa, Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyati qishloq aholisi ulushi tobora kamayib bormoqda. Bu holat qishloq joylarni rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy siyosat ishlab chiqishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston sharoitida qishloq aholisi soniga ko'ra eng optimal tuman kattaligi 100-150 ming kishini tashkil etmoqda. Bu guruhda 46 ta tuman bor - eng keng tarqalgan tip. Ijtimoiy xizmatlarni (maktab, shifoxana, ma'muriyat) hududiy tashkil etish va samaradorligi uchun bu masshtab optimal hisoblanadi. Ayni vaqtda, qishloq aholisi soni 200 ming kishidan ortiq bo'lgan yirik tumanlar yoki markazlashuv xavfining mavjudligi bois, 14 ta tumanda jami 3 416 ming kishi - bu ma'muriy boshqaruv, infratuzilma rejalashtirish va xizmat ko'rsatishda zo'riqlashlarni yuzaga ketirishi mumkin. Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi tahlillarni berish mumkin:

1. Differensial demografik siyosat – janubiy viloyatlar uchun tug'ilishni tartibga solish, shimoliy-g'arbiy hududlar uchun ko'chib kelishni rag'batlantirish dasturlari zarur.

2. Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida resurs-intensiv iqtisodiyot bazasida aholini jalb etish uchun imtiyozli ijtimoiy dasturlar - masofaviy ta'lim, raqamli sog'liqni saqlash, moliyaviy rag'batlantirish, Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun – Orol mavzusidagi xalqaro hamkorlikni demografik investitsiyalar bilan bog'lash qishloq aholini saqlab qolishning strategik usuli sifatida samarali bo'ladi.

3. Tumanlar demografik holatini yilma-yil kuzatish maqsadida monitoring tizimi uchun yosh tarkibi, migratsiya saldosini va tug'ilish nisbati ko'rsatkichlarini tahlil qilib boruvchi "demografik ogohlantirish indeksi" joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2009-yil 13-martdagi 68-son qarori. <https://lex.uz/docs/-1486944>
2. Becker G. S. A treatise on the family. USA. "Harvard University Press", 1981. – 304 p.
3. Buckley, C. (1995). The myth of managed migration: Migration control and market in the Soviet period. *Slavic Review*, 54(4), 896–916. <https://doi.org/10.2307/2501398>
4. Caldwell, J. C. (1976). Toward a restatement of demographic transition theory. *Population and Development Review*, 2(3–4), 321–366. <https://doi.org/10.2307/1971615>
5. Davis, K. (1945). The world demographic transition. *The Annals of the American Academy of Political and Social Science*, 237(1), 1–11. <https://doi.org/10.1177/000271624523700102>
6. Davis, K. (1965). The urbanization of the human population. *Scientific American*, 213(3), 40–53. <https://doi.org/10.1038/scientificamerican0965-40>
7. Falkingham, J. (2000). Women and gender relations in Tajikistan. Asian Development Bank.
8. Ingersoll J.G. // Derivation of the Pareto Index in the Economic System as a Scale-Free Network and Introduction of New Parameters to Monitor Optimal Wealth and Income Distributions./ ECOCORP Inc., Arlington, VA 22202, USA.- 2025, 13(11), 310; <https://doi.org/10.3390/economies13110310>
9. Ioffe, G., Nefedova, T. (2004). Continuity and change in rural Russia: A geographical perspective. *Eurasian Geography and Economics*, 45(1), 45–61. <https://doi.org/10.2747/1538-7216.45.1.45>
10. Notestein, F. W. (1945). Population: The long view. In T. W. Schultz (Ed.), *Food for the world* (pp. 36–57). University of Chicago Press.
11. Zlotnik, H. (2004). Population growth and international migration. In D. S. Massey & J. E. Taylor (Eds.), *International migration: Prospects and policies in a global market* (pp. 15–34). Oxford University Press.
12. Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон қишлоқлари (Қишлоқ жойлар географияси). Т.: "Fan va texnologiya", 2009. – 212 б.
13. Qurbonov P.R. O'zbekistonda shahar aholi punktlari rivojlanishining geografik xususiyatlari (Qashqadaryo viloyati misolida). Monografiya. -T.: «BIG MAKRO WORLD». 2025 yil. – 208 b.

АҲОЛИ МИГРАЦИЯСИНИНГ ТАРИХИЙ ЭВОЛЮЦИЯСИ ВА ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ТРАНСМИЛЛИЙ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Асқарова Мухаббат Ибрахимовна

катта илмий ходим

ТДИУ ҳузуридаги “Ўзбекистон

иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий
асослари ва муаммолари” илмий-тадқиқот маркази

muxabbat.asqarova@bk.ru

ORCID: 0009-0002-0121-7925.

Аннотация. Мазкур мақолада аҳоли миграциясининг тарихий эволюцияси ва унинг замонавий глобал тенденциялари таҳлил қилинган. Миграция жараёнлари мустамлакачилик давридан бошлаб индустриал, постиндустриал ва глобаллашув босқичларигача бўлган даврларда изчил ривожланиб келганлиги асослаб берилган. Шунингдек, миграциянинг мажбурий, индустриал-классик, диффузион ва трансмиллий моделлари илмий жиҳатдан тизимлаштирилган. Миграцияни белгилайдиган иқтисодий, сиёсий, ижтимоий-демографик, маданий, экологик ва технологик омиллар комплекс таҳлил қилинган. Жаҳон миграция оқимларининг минтақавий тақсимооти ва уларнинг трансформацияси статистик маълумотлар асосида ёритилган. Тадқиқот миграциянинг замонавий ижтимоий-иқтисодий тизимга таъсири ва глобал меҳнат бозори шаклланишидаги ролини очиқ беради.

Калит сўзлар: миграция, глобаллашув, меҳнат бозори, трансмиллий миграция, демографик ўзгаришлар.

ИСТОРИЧЕСКАЯ ЭВОЛЮЦИЯ МИГРАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ И ТЕНДЕНЦИИ ТРАНСНАЦИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аскарова Мухаббат Ибрахимовна

Научный сотрудник научно-исследовательского
Центра «Научные основы и проблемы развития
экономики Узбекистана» при Ташкентском
государственном экономическом университете

Аннотация. В данной статье анализируется историческая эволюция миграционных процессов и их современные глобальные тенденции. Показано, что миграция последовательно развивалась от периода колониализма через индустриальную и постиндустриальную стадии к условиям глобализации. Научно систематизированы основные модели миграции: принудительная, индустриально-классическая, диффузионная и транснациональная. Комплексно рассмотрены экономические, политические, социально-демографические, культурные, экологические и технологические факторы, определяющие миграционные процессы. На основе статистических данных проанализировано региональное распределение мировых миграционных потоков и их трансформация. Исследование раскрывает влияние миграции на социально-экономические системы и её роль в формировании глобального рынка труда.

Ключевые слова: миграция, глобализация, рынок труда, транснациональная миграция, демографические изменения.

HISTORICAL EVOLUTION OF POPULATION MIGRATION AND TRENDS OF TRANSNATIONAL DEVELOPMENT UNDER GLOBALIZATION CONDITIONS

Askarova Mukhabbat Ibrahimovna

*Junior researcher of the Research center
«Scientific bases and issues of economic development
of Uzbekistan » under the Tashkent
state university of economics*

Abstract. This article analyzes the historical evolution of population migration and its contemporary global trends. It demonstrates that migration has evolved consistently from the colonial period through the industrial and post-industrial stages to the current era of globalization. The main migration models—forced, industrial-classical, diffusion, and transnational—are systematically examined. Economic, political, socio-demographic, cultural, environmental, and technological factors influencing migration processes are comprehensively analyzed. Based on statistical data, the regional distribution and transformation of

global migration flows are explored. The study highlights the impact of migration on socio-economic systems and its role in shaping the global labor market.

Keywords: migration, globalization, labor market, transnational migration, demographic change.

Кириш.

Замонавий миграция оқимларининг тобора мураккаблашиб, кўпқиррали хусусият касб этиши ҳамда глобал ривожланиш шароитида унинг механизм ва тенденцияларини комплекс тарзда англаш эҳтиёжи мазкур соҳада янги концептуал тадқиқотларни амалга ошириш заруратини юзага келтиради. Аҳоли миграцияси масалалари узоқ даврлардан буён олимлар диққат марказида бўлиб келмоқда ва бу ҳолат мазкур йўналишга бағишланган илмий нашрлар сонининг ҳам мамлакатимизда, ҳам хорижда изчил ортиб бораётганида ўз ифодасини топтоқда. Аҳоли миграцияси глобаллашув жараёнларининг ажралмас таркибий қисми сифатида шаклланган бўлиб, унинг тарихий эволюцияси турли ижтимоий-иқтисодий формациялар билан узвий боғлиқдир. Глобаллашувнинг дастлабки босқичларида миграция жараёнларининг бир қатор моделларини ажратиш мумкин бўлиб, улардан бири мажбурий-принудий миграция модели ҳисобланади.

Адабиётлар таҳлили.

Миграция жараёнлари ва унинг ижтимоий-иқтисодий оқибатлари жаҳон ва маҳаллий илмий адабиётларда кенг ўрганилган. Хусусан, классик миграция назарияларида Е. Ravenstein миграция қонунларини шакллантириб, миграциянинг асосий йўналишлари ва омилларини иқтисодий шароитлар билан боғлаб тушунтирган[1]. Шунингдек, Е. Lee миграцияни “итарадиган ва тортадиган омиллар” модели орқали таҳлил қилиб, унинг кўп омилли табиатини очиб берган[2].

Замонавий тадқиқотларда S. Castles ва M. Miller миграцияни глобаллашув жараёнининг ажралмас қисми сифатида талқин қилиб, унинг трансмиллий хусусиятини асослаб берган [3]. G. Massey ва ҳаммуаллифлар эса халқаро миграцияни тармоқлар назарияси орқали изоҳлаб, мигрантлар ўртасидаги ижтимоий алоқалар миграцияни барқарорлаштирувчи омил эканлигини кўрсатган[4].

БМТ ва Халқаро меҳнат ташкилоти (ХМТ)нинг расмий ҳисоботларида миграциянинг глобал кўлами, унинг меҳнат бозорига таъсири ҳамда демографик ўзгаришлардаги роли батафсил ёритилган [5]. Шу билан бирга, постсовет мамлакатларида миграция жараёнлари этник ва ижтимоий-сиёсий омиллар билан чамбарчас боғлиқ эканлиги бир қатор маҳаллий тадқиқотларда таъкидланган [6].

Умуман олганда, мавжуд адабиётлар таҳлили миграциянинг кўп қиррали ижтимоий-иқтисодий ҳодиса эканлигини кўрсатиб, унинг глобаллашув шароитида янги трансмиллий шакллар касб этаётганини тасдиқлайди.

Тадқиқот методологияси.

Ушбу тадқиқотда аҳоли миграцияси жараёнларининг тарихий ривожланиши ва замонавий тенденцияларини таҳлил қилишда комплекс методологик ёндашув қўлланилди.

Тадқиқотнинг илмий асосини тарихийлик ва тизимли таҳлил тамойиллари ташкил этади. Миграция жараёнларини ўрганишда фанлараро ёндашувдан фойдаланилиб, иқтисодий, ижтимоий ва демографик омиллар ўзаро боғлиқ ҳолда таҳлил қилинди.

Асосий илмий усуллар сифатида қуйидагилар қўлланилди: тарихий-қиёсий таҳлил, статистик таҳлил, системали ёндашув, индукция ва дедукция усуллари ҳамда синтез усули.

Тадқиқотнинг эмпирик базасини халқаро ташкилотлар статистик маълумотлари ва илмий адабиётлар ташкил этади. Миграция жараёнлари иқтисодий, ижтимоий ва глобал омиллар билан узвий боғлиқ кўп қиррали ҳодиса сифатида кўриб чиқилди.

Таҳлиллар ва натижалар муҳокамаси.

Мажбурий миграция асосан мустамлакачилик даврига хос бўлиб, Ғарбий Европа империя марказларининг колониал тизимни шакллантириш ва ривожлантириш эҳтиёжлари билан бевосита боғлиқдир. Бу даврда миграция бозор муносабатлари асосида эмас, балки сиёсий ҳукмронлик, иқтисодий экспансия ва куч ишлатиш механизмлари орқали амалга оширилган. Айнан шу шароитда глобал савдо тизимлари шаклланиб, “узоқ масофали” иқтисодий алоқалар кенгайди ва жаҳон

миқёсидаги биринчи трансмиллий алоқалар юзага келди [7]. Янги капиталистик бозорларнинг пайдо бўлиши ва Янги Дунёда цивилизациянинг шаклланиши кўплаб европаликларни ўз ватанидаги иқтисодий чекловлардан чиқиб, Америка ва Африка ҳудудларига кўчиб ўтишга ундади. Улар янги мустамлака ҳудудларини бошқариш, иқтисодий манфаатларни таъминлаш ва сиёсий таъсирни кенгайтириш мақсадида ушбу ҳудудларга жойлашдилар.

Бу жараёнлар натижасида Ғарбий Европа, Африка ва Америка ўртасида ўзига хос трансатлантик иқтисодий ва миграцион тизим — “учбурчак” модели шаклланди. Ушбу тизим доирасида Европа саноат маҳсулотлари Африкага етказилган, Африкадан мажбурий равишда қуллар Америка қитъасига ташилган, Америкадан эса Европа бозорларига пахта, шакар ва бошқа хом ашёлар экспорт қилинган [8]. Мазкур тизимнинг энг муҳим ва фожиавий таркибий қисми қуллар савдоси бўлиб, тарихий манбаларга кўра 1500–1850 йиллар давомида Африкадан тахминан 10 миллион нафар инсон мажбурий равишда Америка қитъасига олиб кетилган [9]. Бу ҳолат миграциянинг инсон эркинлиги ва ҳуқуқлари билан эмас, балки иқтисодий эксплуатация ва зўравонлик билан боғлиқ шаклда ҳам намоён бўлганлигини кўрсатади.

Мустамлакачилик даври миграция жараёнларининг иккинчи йирик йўналиши европалик аҳолининг Шимолий Америка, Жанубий Африка, Австралия ва Янги Зеландияга оммавий кўчиб ўтиши билан тавсифланади. Бу жараён, бир томондан, Европадаги демографик босим, ер ва ресурслар тақчиллиги, урбанизация ва индустриал инқилоб натижасида юзага келган ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар билан изоҳланса [7], иккинчи томондан, янги мустамлака ҳудудларининг очилиши ва уларнинг иқтисодий салоҳияти билан боғлиқ эди. Тарихий маълумотларга кўра, 1846–1924 йиллар давомида тахминан 50 миллион нафар европалик денгиз орти ҳудудларга кўчиб ўтган [10] бўлиб, бу ҳолат жаҳон тарихидаги энг йирик миграцион оқимлардан бири сифатида баҳоланади.



1-расм. Миграциянинг тарихий босқичлари.

Манба: Муаллиф тадқиқотлари асосида шакллантирилган

Ушбу расм миграция жараёнларининг тарихий эволюциясини тўрт босқичда акс эттиради. Ундан кўринишича, миграция шакллари жамиятнинг иқтисодий, сиёсий ва технологик ривожланиши билан бирга ўзгариб борган. Дастлабки босқич – мустамлакачилик даврида (XVI–XIX асрлар) миграция асосан мажбурий хусусият касб этган бўлиб, қул савдоси, депортациялар ва колониал кўчиришлар устунлик қилган. Бу даврда

инсонларнинг ҳаракатланиши эркин иқтисодий танлов эмас, балки сиёсий ва ҳарбий босим натижаси бўлган.

Индустриал даврда (XIX–XX аср ўрталари) саноатлашув жараёнлари меҳнат ресурсларига бўлган талабни кучайтириб, меҳнат миграциясининг кенгайишига олиб келган. Натижада аҳолининг иқтисодий сабабларга кўра давлатлар ва минтақалар ўртасида кўчиши фаоллашган. Постиндустриал даврда эса глобал меҳнат бозорининг шаклланиши, оилавий бирлашиш ва контракт асосидаги меҳнат миграцияси каби янги йўналишлар пайдо бўлган.

1-жадвал

Миграцияни белгиловчи омиллар

№	Омиллар гуруҳи	Асосий таркибий элементлар	Миграцияга таъсири
1	Иқтисодий омиллар	ишсизлик даражаси, иш ҳақи фарқи, иқтисодий ўсиш, меҳнат бозорида талаб ва таклиф номутаносиблиги, турмуш даражаси	аҳолининг иқтисодий манфаат асосида кўчиши, меҳнат миграциясининг кучайиши
2	Сиёсий омиллар	сиёсий барқарорлик/беқарорлик, урушлар, ички низолар, миграция сиёсати, виз режимлари, инсон ҳуқуқлари	мажбурий миграция, қочқинлар оқими, сиёсий эмиграция
3	Ижтимоий-демографик омиллар	аҳоли сони, ёш тузилмаси, таълим даражаси, оилавий алоқалар, ижтимоий мобиллик	меҳнат ёшидаги аҳоли ҳаракатчанлиги, оила бирлашуви миграцияси
4	Маданий омиллар	тил тўсиқлари, диний фарқлар, этник идентичлик, интеграция даражаси	ассимиляция ёки этник жамоалар шаклланиши
5	Экологик омиллар	табiiй офатлар, иқлим ўзгариши, ер деградацияси, сув танқислиги	мажбурий экологик миграция
6	Технологик омиллар	интернет ривож, транспорт тизими, рақамли платформалар, глобал коммуникация	миграция тезлиги ошиши, масофавий иш имкониятлари

Манба: Муаллиф тадқиқотлари асосида шакллантирилган

Ушбу жадвал таҳлили шуни кўрсатадики, миграция жараёнлари кўп омилли хусусиятга эга бўлиб, уларнинг шаклланишига иқтисодий, сиёсий, ижтимоий-демографик, маданий, экологик ва технологик омиллар комплекс таъсир кўрсатади. Айниқса, иқтисодий омиллар миграциянинг

асосий ҳаракатлантирувчи кучи ҳисобланиб, ишсизлик даражаси, иш ҳақидаги тафовутлар ва меҳнат бозоридаги номутаносибликлар меҳнат миграцияси оқимларини кучайтиради.

Глобаллашув даврида (1990 йиллардан ҳозирги вақтгача) миграция янада мураккаб ва кўп қиррали тус олди. Трансмиллий миграция, рақамли меҳнат бозори, юқори малакали кадрлар ҳаракати ва глобал мобилликнинг кучайиши миграциянинг замонавий хусусиятларини белгиламоқда. Шунингдек, рақамли технологиялар ва транспорт-коммуникация тизимларининг ривожланиши миграция оқимларининг тезлашишига хизмат қилмоқда.

Умуман олганда, расм миграциянинг мажбурий кўчишлардан иқтисодий ва интеллектуал мобилликкача бўлган эволюциясини кўрсатади ҳамда унинг жаҳон иқтисодиёти, меҳнат бозори ва демографик жараёнларга таъсири тобора ортиб бораётганлигини ифодалайди. Бу эса миграцияни замонавий иқтисодий ривожланишнинг муҳим омилларидан бири сифатида баҳолаш имконини беради.

Шу билан бирга, сиёсий омиллар, жумладан, сиёсий беқарорлик, қурулли можаролар ва инсон ҳуқуқлари билан боғлиқ муаммолар мажбурий миграция ҳамда қочқинлар оқимининг шаклланишига сабаб бўлади. Ижтимоий-демографик омиллар эса аҳолининг ёш таркиби, таълим даражаси ва ижтимоий мобиллиги орқали меҳнат ёшидаги аҳолининг ҳаракатчанлигини оширади ва оилавий миграцияни рағбатлантиради.

Маданий омиллар мигрантларнинг янги муҳитга мослашув жараёнига таъсир кўрсатса, экологик омиллар иқлим ўзгариши, табиий офатлар ва ресурслар танқислиги натижасида экологик миграциянинг кенгайишига олиб келмоқда. Замонавий шароитда технологик омилларнинг аҳамияти ортиб бормоқда. Интернет, рақамли платформалар ва транспорт-коммуникация инфратузилмасининг ривожланиши миграция жараёнларини тезлаштириб, масофавий меҳнат ва рақамли миграция каби янги шакллارни вужудга келтирмоқда.

Демак, миграцияни белгиловчи омиллар ўзаро боғлиқ ҳолда амал қилиб, аҳолининг ҳудудий ҳаракатланиши йўналиши, кўлами ва хусусиятларини шакллантирувчи муҳим детерминантлар сифатида намоён бўлади. Бу эса миграция сиёсатини ишлаб чиқишда мазкур омилларни комплекс баҳолаш зарурлигини кўрсатади.

2-жадвал

Миграция жараёнининг натижалари

№	Йўналиш	Асосий натижалар
1	Иқтисодий	меҳнат бозори трансформацияси, пул ўтказмалари, ишчи кучининг қайта тақсимланиши
2	Демографик	аҳоли таркиби ўзгариши, қариш жараёни, шаҳарлашув
3	Ижтимоий	янги этник гуруҳлар, маргиналлашув, интеграция муаммолари
4	Маданий	мультикультурализм, космополитик онг шаклланиши
5	Сиёсий	миграция сиёсати кучайиши, чегара назоратининг кучайиши

Манба: Муаллиф тадқиқотлари асосида шакллантирилган

Ушбу жадвал миграциянинг жамият тараққиётининг турли соҳаларига комплекс таъсир кўрсатишини намоён этади. Иқтисодий жиҳатдан миграция меҳнат бозорининг трансформациясига, ишчи кучининг ҳудудлар бўйича қайта тақсимланишига ва пул ўтказмалари орқали мамлакатлар иқтисодиётига таъсир кўрсатади. Бу жараён меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш имкониятларини кенгайтирса-да, айрим ҳудудларда кадрлар етишмаслиги муаммосини ҳам келтириб чиқаради.

Демографик нуқтаи назардан миграция аҳоли сони ва таркибининг ўзгаришига, шаҳарлашув жараёнларининг жадаллашишига ҳамда айрим мамлакатларда аҳолининг қариш суръатларига таъсир кўрсатади. Ижтимоий соҳада эса янги этник гуруҳларнинг шаклланиши, интеграция жараёнлари ва айрим ҳолларда ижтимоий четлашув (маргиналлашув) каби ҳолатлар кузатилади.

Маданий жиҳатдан миграция турли маданиятларнинг ўзаро таъсирини кучайтириб, мультикультурализм ва космополитик онгнинг шаклланишига хизмат қилади. Сиёсий соҳада эса миграция оқимларининг ортиши давлатларнинг миграция сиёсатини такомиллаштириш, чегара назоратини кучайтириш ва мигрантларни бошқариш механизмларини ривожлантиришни тақозо этади.

Умуман олганда, миграция иқтисодий, демографик, ижтимоий, маданий ва сиёсий жараёнларни ўзаро боғловчи кўп қиррали ҳодиса бўлиб, унинг натижалари ҳам қабул қилувчи, ҳам мигрантларни жўнатувчи мамлакатлар ривожланишига сезиларли таъсир кўрсатади. Илмий

жиҳатдан бу таъсирлар миграциянинг замонавий глобаллашув шароитида муҳим ижтимоий-иқтисодий омил эканлигини тасдиқлайди.

Хулоса ва таклифлар.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, миграция жаҳон ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг ажралмас қисми бўлиб, унинг кўлами ва мазмуни тарихий тараққиёт босқичлари давомида сезиларли даражада ўзгариб борган. Мустамлакачилик даврида мажбурий кўчишлар устун аҳамият касб этган бўлса, индустриал ва постиндустриал босқичларда меҳнат миграцияси асосий йўналишга айланган. Глобаллашув ва рақамли иқтисодиёт шароитида эса трансмиллий, юқори малакали кадрлар ҳамда рақамли меҳнат миграцияси каби янги шакллар пайдо бўлмоқда.

Таҳлиллар миграция жараёнларининг шаклланиши иқтисодий, сиёсий, ижтимоий-демографик, маданий, экологик ва технологик омилларнинг ўзаро таъсири натижасида юзага келишини кўрсатди. Хусусан, меҳнат бозоридаги талаб ва таклиф номуносивблиги, иш ҳақидаги тафовутлар, сиёсий беқарорлик, демографик ўзгаришлар ва рақамли технологияларнинг ривожланиши замонавий миграция оқимларининг асосий ҳаракатлантирувчи омиллари ҳисобланади.

Шунингдек, миграция иқтисодий жиҳатдан меҳнат ресурсларининг қайта тақсимланиши ва пул ўтказмалари ҳажмининг ошишига, демографик жиҳатдан аҳоли таркиби ва шаҳарлашув жараёнларининг ўзгаришига, ижтимоий-маданий жиҳатдан эса мултикультурализм ва ижтимоий интеграциянинг кучайишига таъсир кўрсатиши аниқланди. Бироқ ушбу жараёнлар билан бир қаторда меҳнат ресурслари оқиб кетиши, ижтимоий мослашув муаммолари ва миграция бошқаруви билан боғлиқ хавфлар ҳам мавжудлиги кузатилди.

1. Меҳнат миграциясини самарали бошқариш мақсадида меҳнат бозорида талаб юқори бўлган касблар бўйича кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш ва касбий таълим дастурларини меҳнат бозори эҳтиёжлари билан уйғунлаштириш мақсадга мувофиқ.

2. Рақамли иқтисодиёт шароитида масофавий меҳнат, фриланс ва рақамли платформалар орқали бандлик имкониятларини кенгайтириш орқали ташқи меҳнат миграциясига қарамликни қисқартириш зарур.

3. Миграция жараёнларини мониторинг қилиш ва прогнозлаштириш учун рақамли маълумотлар базаси ва миграция ахборот тизимларини ривожлантириш, статистик ҳисоботларнинг аниқлиги ва тезкорлигини ошириш лозим.

4. Юқори малакали кадрлар оқимини сақлаб қолиш мақсадида илмий-тадқиқот фаолиятини қўллаб-қувватлаш, инновацион экотизимни ривожлантириш ва рақобатбардош меҳнат шароитларини яратиш муҳим ҳисобланади.

5. Мигрантларнинг ижтимоий ҳимоясини кучайтириш учун қабул қилувчи давлатлар билан икки томонлама келишувларни кенгайтириш, меҳнат ҳуқуқлари ва ижтимоий кафолатларни таъминлаш механизмларини такомиллаштириш зарур.

6. Экологик ва мажбурий миграция хавфларини камайтириш мақсадида иқлим ўзгариши оқибатларига мослашув дастурларини амалга ошириш ҳамда аҳолининг экологик хавф юқори бўлган ҳудудлардан хавфсиз кўчирилишини таъминлаш лозим.

7. Миграция сиёсатини такомиллаштиришда иқтисодий, демографик ва ижтимоий омилларни комплекс ҳисобга олувчи интеграциялашган ёндашувни жорий этиш мақсадга мувофиқ.

Умуман олганда, миграцияни самарали бошқариш, инсон капиталини ривожлантириш ва рақамли иқтисодиёт имкониятларидан оқилона фойдаланиш мамлакатнинг барқарор иқтисодий ўсиши, меҳнат бозори рақобатбардошлиги ҳамда аҳоли фаровонлигини оширишнинг муҳим шартларидан бири ҳисобланади.

Адабиётлар:

1. Ravenstein E. G. *The Laws of Migration* // *Journal of the Statistical Society of London*. – London, 1885. – Vol. 48. – P. 167–235.
2. Lee E. S. *A Theory of Migration* // *Demography*. – 1966. – Vol. 3(1). – P. 47–57.
3. Castles S., Miller M. J. *The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World*. – 4th ed. – London: Palgrave Macmillan, 2009. – 370 p.
4. Massey D. S., Arango J., Hugo G., Kouaouci A., Pellegrino A., Taylor J. E. *Worlds in Motion: Understanding International Migration at the End of the Millennium*. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 362 p.

5. United Nations, Department of Economic and Social Affairs (UN DESA). *International Migration Report 2020*. – New York: United Nations, 2020. – 38 p.
6. International Labour Organization (ILO). *Global Estimates on International Migrant Workers*. – Geneva: ILO, 2021. – 105 p.
7. Eltis D., Richardson D. *Atlas of the Transatlantic Slave Trade*. Yale University Press, 2010. – pp. 78–85, 120–129.
8. Klein H. S. *The Atlantic Slave Trade*. Cambridge University Press, 2010. – pp. 33–41, 102–110.
9. Manning P. *Migration in World History*. Routledge, 2005. – pp. 56–63, 140–148
10. Eltis D., Richardson D. *Atlas of the Transatlantic Slave Trade*. Yale University Press, 2010. – pp. 78–85, 120–129.
11. Eltis D., Richardson D. *Atlas of the Transatlantic Slave Trade*. Yale University Press, 2010. – pp. 78–85, 120–129.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MEHNAT MIGRATSIYASINI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

*Scientific Research Center "Scientific
Foundations and Problems of Economic
Development of Uzbekistan" under
Tashkent State University of Economics
ORCID: 0000-0002-3742-5622*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda demografik jarayonlar va mehnat migratsiyasining o'zaro bog'liqligi globallashuv sharoitida kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda aholining takror barpo bo'lish jarayonlari, xususan o'lim, aholining qarishi va migratsiya oqimlari statistik hamda analitik usullar yordamida o'rganilgan. Shuningdek, migratsiya jarayonlarini samarali boshqarishda Big Data, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida migratsiya jarayonlarini prognozlash, monitoring qilish va boshqarishning zamonaviy data-driven yondashuvlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: mehnat migratsiyasi, demografik jarayonlar, aholining takror barpo bo'lishi, Big Data, raqamli texnologiyalar, migratsiya boshqaruvi, prognozlash

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИЕЙ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Бахриддинова Муаззам Азам кизи

*Научно-исследовательский центр
"Научные основы и проблемы
развития экономики Узбекистана" при ТГЭУ
ORCID: 0000-0002-3742-5622*

Аннотация: В данной статье комплексно проанализирована взаимосвязь демографических процессов и трудовой миграции в Узбекистане в условиях глобализации. В исследовании изучены процессы воспроизводства

населения, в частности смертность, старение населения и миграционные потоки с использованием статистических и аналитических методов. Особое внимание уделено роли Big Data, искусственного интеллекта и цифровых технологий в эффективном управлении миграционными процессами. В результате предложены современные data-driven подходы к прогнозированию, мониторингу и управлению миграцией.

Ключевые слова: трудовая миграция, демографические процессы, воспроизводство населения, Big Data, цифровые технологии, управление миграцией, прогнозирование

IMPROVING THE MANAGEMENT OF LABOR MIGRATION BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of Economic Development of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics
ORCID: 0000-0002-3742-5622

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the interrelationship between demographic processes and labor migration in Uzbekistan in the context of globalization. The study examines population reproduction processes, including mortality, population aging, and migration flows using statistical and analytical methods. Special attention is given to the role of Big Data, artificial intelligence, and digital technologies in improving migration management. The research proposes modern data-driven approaches for forecasting, monitoring, and managing migration processes.

Keywords: labor migration, demographic processes, population reproduction, Big Data, digital technologies, migration management, forecasting

Kirish.

Globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida mehnat migratsiyasi zamonaviy iqtisodiyot va demografik rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda mehnat

migratsiyasi aholi bandligini ta'minlash, daromadlar darajasini oshirish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, migratsiya jarayonlarining tartibsizligi, noqonuniy migratsiya va ijtimoiy himoya mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi ushbu sohada ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va mehnat migratsiyasini tartibga solish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan davlat siyosatini yanada takomillashtirish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi [1]. Mazkur hujjatlar doirasida aholini tadbirkorlikka jalb qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanish tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [2]. Bu esa migratsiya jarayonlarini tizimli boshqarish, yagona axborot bazalarini shakllantirish va migratsiya oqimlarini prognozlash zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Bundan tashqari, "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" hamda "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida aholi farovonligini oshirish, bandlikni ta'minlash va inson kapitalini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib, ushbu maqsadlarga erishishda mehnat migratsiyasini samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Zamonaviy sharoitda migratsiya jarayonlarini an'anaviy usullar bilan boshqarish yetarli samara bermaydi. Shu sababli Big Data, sun'iy intellekt, raqamli platformalar va ekonometrik modellar asosida migratsiya jarayonlarini tahlil qilish va prognozlash dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Bu esa migratsiya oqimlarini oldindan baholash, mehnat bozori ehtiyojlarini aniqlash va davlat siyosatini samarali shakllantirish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur tadqiqot mavzusi nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi. Chunki mehnat migratsiyasini globallashtirish sharoitida samarali boshqarish, uning ijobiy iqtisodiy ta'sirini kuchaytirish hamda salbiy oqibatlarini kamaytirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar sharhi.

Mehnat migratsiyasi va demografik jarayonlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning ilmiy tadqiqi turli davrlarda ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Klassik demografik tadqiqotlarda aholi harakati, jumladan tug'ilish, o'lim va migratsiya jarayonlari aholining takror barpo bo'lishining asosiy komponentlari sifatida qaraladi [5]. Migratsiya nazariyasining shakllanishida ingliz olimi Ernest Ravensteinning "migratsiya qonunlari" alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda migratsiya oqimlarining hududiy va iqtisodiy omillar bilan bog'liqligi asoslab berilgan [5]. Keyinchalik ushbu nazariyalar neoklassik iqtisodiy yondashuvlar bilan boyitilib, migratsiya asosan ish haqi farqlari va mehnat bozoridagi nomutanosibliklar bilan izohlangan [6]. Zamonaviy tadqiqotlarda migratsiya jarayonlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-demografik omillar bilan ham chambarchas bog'liq ekani ta'kidlanadi. Xususan, aholining yosh tarkibi, bandlik darajasi va ta'lim ko'rsatkichlari migratsiya oqimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [7]. Shu bilan birga, migratsiya mehnat resurslarining hududiy qayta taqsimlanishiga xizmat qilib, iqtisodiy o'sish omillaridan biri sifatida qaraladi [8].

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham mehnat migratsiyasi va demografik jarayonlar keng o'rganilgan. Jumladan, aholi takror barpo bo'lishi jarayonlari, mehnat resurslari shakllanishi va ularning hududiy xususiyatlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan [9]. Ushbu tadqiqotlarda demografik omillarning mehnat bozori va migratsiya jarayonlariga ta'siri kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan.

So'nggi yillarda migratsiya jarayonlarini o'rganishda raqamli texnologiyalar, xususan Big Data va sun'iy intellektdan foydalanish kengayib bormoqda. Ilmiy adabiyotlarda migratsiya oqimlarini prognozlashda ekonometrik modellarning samaradorligi alohida ta'kidlanadi [10]. Bu yondashuvlar migratsiya jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish va boshqarish imkonini beradi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT va Jahon banki hisobotlarida migratsiya global iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biri sifatida baholanib, uning ijobiy va salbiy oqibatlari chuqur tahlil qilingan [11]. Ushbu manbalarda migrantlarning pul o'tkazmalari, inson kapitali va mehnat bozori bilan bog'liq jihatlar keng yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasida migratsiya jarayonlarini tartibga solish va mehnat migrantlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular ushbu sohani institutsional rivojlantirishga

xizmat qilmoqda [4]. Xususan, xorijda ishlayotgan fuqarolarni himoya qilish, ularni kasbiy tayyorlash va migratsiya oqimlarini tartibga solish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, mavjud ilmiy tadqiqotlarda migratsiya jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida kompleks tahlil qilish, yagona reyestr tizimini yaratish va data-driven boshqaruv mexanizmlarini joriy etish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda demografik va migratsiya jarayonlarini tahlil qilishda kompleks yondashuv qo'llanilib, statistik tahlil, taqqoslama tahlil va ekonometrik modellash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda rasmiy statistik ma'lumotlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar asosida aholi o'limi, qarishi va migratsiya ko'rsatkichlari o'rganildi. Shuningdek, migratsiya oqimlarini prognozlash va baholashda Big Data yondashuvlari hamda sun'iy intellekt elementlariga asoslangan analitik usullar qo'llanildi. Olingan natijalar tizimli va mantiqiy tahlil asosida umumlashtirildi.

Tahlil va natijalar.

Aholining takror barpo bo'lish jarayonida o'lim muhim demografik komponentlardan biri hisoblanadi. U avlodlarning kamayib borish jarayoni sifatida namoyon bo'lib, turli yosh guruhlarida yuzaga keladigan alohida o'lim holatlarining yig'indisi orqali shakllanadi. Demografik nuqtai nazardan o'lim jarayoni aholining tabiiy harakatini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib, tug'ilish darajasi bilan birgalikda aholi sonining o'zgarish dinamikasini aniqlaydi [4]. O'lim darajasini baholash demografik tahlilning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u orqali aholi salomatligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda turmush sifati haqida xulosalar chiqarish mumkin. Shu bois demografiyada o'lim ko'rsatkichlarini baholash uchun turli indikatorlar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, ular umumiy va yosh bo'yicha o'lim darajalarini aniqlash, o'lim sabablarini tahlil qilish hamda kutilayotgan umr davomiyligini hisoblash imkonini beradi.

2025 yil yanvar-oktyabr oylarida O'zbekiston Respublikasida jami 131,7 mingta o'lim holati qayd etilgan bo'lib, shundan 72,3 ming nafari erkaklar va 59,4 ming nafari ayollarga to'g'ri keladi. Hududlar kesimida o'lim ko'rsatkichlari notekis taqsimlangan bo'lib, yuqori ulush Samarqand, Farg'ona viloyatlari hamda

Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida nisbatan past ko'rsatkichlar kuzatilgan.

O'lim sabablarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, eng katta ulush qon aylanish tizimi kasalliklariga to'g'ri keladi (57,2 %). Shuningdek, o'sma kasalliklari (9,5 %), nafas olish organlari kasalliklari (6,5 %) ham muhim o'rin egallaydi. Bundan tashqari, baxtsiz hodisalar, zaharlanish va jarohatlar bilan bog'liq o'lim holatlari ham sezilarli ulushni tashkil etadi.

Demografik tahlilda muhim ko'rsatkichlardan biri umumiy o'lim koeffitsiyenti hisoblanadi. U ma'lum davrda qayd etilgan o'limlar sonining o'rtacha aholi soniga nisbati sifatida aniqlanadi va promille (‰)da ifodalanadi. Ushbu ko'rsatkich yordamida o'lim darajasining vaqt bo'yicha o'zgarishini baholash mumkin.

O'lim jarayoniga ta'sir etuvchi omillar biologik va ijtimoiy guruhlariga ajratiladi. Biologik omillarga organizmning tabiiy xususiyatlari va genetik omillar kirsa, ijtimoiy omillar qatoriga turmush darajasi, sog'liqni saqlash tizimi rivojlanganligi, ekologik sharoit va aholining turmush tarzi kiradi. Shu bilan birga, daromad va ta'lim darajasi past bo'lgan ijtimoiy guruhlarda o'lim darajasi yuqoriroq ekanini kuzatiladi.

Zamonaviy demografiyada o'lim sabablarining o'zgarishi "epidemiologik o'tish" konsepsiyasi bilan izohlanadi. Unga ko'ra, rivojlanish jarayonida o'lim sabablarining tarkibi tashqi (infeksion kasalliklar, baxtsiz hodisalar) omillardan ichki (surunkali kasalliklar) omillar ustunligiga o'tadi. O'zbekistonda ham ushbu tendensiya kuzatilib, yurak-qon tomir kasalliklari asosiy o'lim sababiga aylangan. Shunday qilib, o'lim jarayonining tahlili mamlakatda demografik vaziyatni baholash, sog'liqni saqlash tizimi samaradorligini aniqlash hamda mehnat resurslari shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholi o'lim ko'rsatkichlarining dinamikasi bevosita aholining yosh tarkibi va umr davomiyligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan demografik jarayonlarni chuqur tahlil qilishda aholining qarishi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Aholining qarishi – umumiy aholi tarkibida katta yoshdagi (keksalar) ulushining ortib borishi bilan tavsiflanadi va u asosan tug'ilish darajasining pasayishi hamda umr davomiyligining oshishi bilan izohlanadi.

Demografiyada aholining qarishi ikki asosiy turga ajratiladi: yuqoridan qarish va pastdan qarish. Yuqoridan qarish umr davomiyligining oshishi va katta

yosh guruhlarida o'lim darajasining kamayishi natijasida yuzaga kelsa, pastdan qarish tug'ilish darajasining pasayishi hisobiga shakllanadi. Mazkur jarayonlar O'zbekiston sharoitida ham kuzatilib, aholining yosh tarkibida muayyan siljishlarni yuzaga keltirmoqda.

Aholining qarish darajasini baholashda 60 va 65 yoshdan yuqori aholi ulushi asosiy indikator sifatida qo'llaniladi. Xususan, 65 yosh va undan yuqori aholi ulushining ortib borishi demografik qarishning asosiy mezoni hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich asosida aholining yosh tarkibi va demografik yuklama darajasini aniqlash mumkin.

O'zbekistonda so'nggi yillarda umr davomiyligi oshib borayotganligi kuzatilmoqda. 2025 yil holatiga ko'ra, o'rtacha umr davomiyligi 65–70 yilni tashkil etib, erkaklarda 64,3 yil va ayollarda 76,1 yilni tashkil qilgan. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi sezilarli farq (11,8 yil) erkaklar o'rtasida o'lim darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Mazkur farqning yuzaga kelishida biologik va ijtimoiy omillar muhim rol o'ynaydi. Biologik jihatdan erkak organizmi tashqi ta'sirlarga nisbatan kamroq chidamli bo'lsa, ijtimoiy omillar qatoriga zararli odatlar, ishlab chiqarishdagi xavfli sharoitlar hamda turmush tarzidagi farqlar kiradi. Bu esa mehnat resurslari tarkibida ham jinsiy nomutanosibliklarni yuzaga keltiradi. Aholining qarishi ijtimoiy-iqtisodiy tizimga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, mehnatga layoqatli aholi ulushining kamayishi natijasida pensiya tizimiga yuklama ortadi, sog'liqni saqlash xizmatlariga talab oshadi hamda iste'mol tarkibida o'zgarishlar yuz beradi. Shu sababli demografik qarish jarayonlarini oldindan prognozlash va unga mos ijtimoiy siyosatni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shunday qilib, o'lim jarayonlari va umr davomiyligidagi o'zgarishlar aholining yosh tarkibini shakllantirib, demografik qarish jarayonining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida mehnat resurslari hajmi va sifatiga, shuningdek migratsiya jarayonlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi jadvalda O'zbekistonda demografik va migratsiya jarayonlari kompleks tizim sifatida tahlil qilinib, ularning asosiy ko'rsatkichlari, sabab omillari, oqibatlar hamda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tizimli ravishda umumlashtirildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, demografik jarayonlar va migratsiya o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ayniqsa mehnat resurslari sifati va hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ushbu jarayonlarni samarali

boshqarish uchun raqamli texnologiyalar asosida yagona integratsiyalashgan tizimni joriy etish zarur.

1-jadval

O'zbekistonda demografik va migratsiya jarayonlari [13]

Yo'nalish	Asosiy ko'rsatkichlar (2025)	Sabablar (determinantlar)	Oqibatlar (ta'sirlar)	Muammolar	Taklif etilayotgan yechimlar
O'lim jarayoni	131,7 ming; 57,2% yurak-qon tomir kasalliklari	Sog'liqni saqlash sifati, turmush tarzi, ekologiya	Mehnat resurslari qisqarishi, umr davomiyligining pasayishi	Erkaklar o'limi yuqori	Profilaktika tizimini kuchaytirish, raqamli sog'liq monitoringi
Umr davomiyligi	Erkaklar – 64,3; ayollar – 76,1	Gender farqlari, zararli odatlar, ijtimoiy omillar	Demografik nomutanosiblik	11,8 yil tafovut	Erkaklar salomatligi dasturlari, sog'lom turmush siyosati
Aholining qarishi	65+ ulushi ortib bormoqda	Tug'ilish pasayishi, umr uzayishi	Pensiya yuklamasi ortadi	Ijtimoiy yuklama oshishi	Faol qarilik siyosati, pensiya tizimini optimallashtirish
Migratsiya (kelish)	186,8 ming	Mehnat bozori ehtiyoji, urbanizatsiya	Aholi qayta taqsimlanadi	Hududiy nomutanosiblik	Hududiy rivojlanish siyosati
Migratsiya (ketish)	193,5 ming	Ish haqi farqi, bandlik yetishmasligi	Mehnat resurslari chiqib ketishi	"Brain drain" xavfi	Yuqori daromadli ish o'rinlari yaratish
Migratsiya saldosi	Manfiy	Tashqi iqtisodiy omillar	Iqtisodiy yo'qotishlar	Kadrlar oqimi kamayishi	Reintegratsiya dasturlari
Noqonuniy migratsiya	Yashirin segment mavjud	Axborot yetishmasligi, tartibga solish sustligi	Ijtimoiy himoya past	Odam savdosi xavfi	Yagona reyestr va raqamli nazorat tizimi
Mehnat resurslari sifati	Malaka nomutanosibligi	Ta'lim va bozor uzilishi	Past samaradorlik	"Skill mismatch"	Kasbiy va til tayyorlash tizimi
Boshqaruv tizimi	Fragmentatsiya mavjud	Idoralararo integratsiya past	Ma'lumotlar uzilishi	Qaror qabul qilish qiyin	Yagona migratsiya platformasi (data-driven)

Manba: Statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Demografik jarayonlar, xususan o'lim darajasi, umr davomiyligi va aholining qarishi mehnat resurslari shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, migratsiya jarayonlarining intensivligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, migratsiya demografik tizimning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi va aholi harakatining eng faol shakllaridan biri hisoblanadi.

2025 yil yanvar-oktyabr oylarida O'zbekiston Respublikasida migratsiya jarayonlari tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatga 186,8 ming nafar aholi kirib kelgan bo'lsa, 193,5 ming nafar aholi mamlakatni tark etgan. Mazkur holat migratsiya saldosinga manfiy ekanligini ko'rsatib, mehnat resurslarining tashqi oqimini ifodalaydi.

Migratsiya tarkibida mehnat yoshidagi aholi ulushi yuqori bo'lib, bu ko'rsatkich 80 foizdan ortiqni tashkil etadi. Ushbu holat mehnat migratsiyasining iqtisodiy xarakterga ega ekanligini va asosiy sabablar sifatida ish haqi darajasidagi farqlar, bandlik imkoniyatlarining cheklanganligi hamda mehnat bozori nomutanosibliklari bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Hududiy kesimda migratsiya jarayonlari notekis taqsimlangan bo'lib, eng yuqori migratsiya oqimlari yirik shaharlar, xususan Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa urbanizatsiya jarayonlarining kuchayib borayotganini hamda iqtisodiy imkoniyatlar markazlashgan hududlarda aholi to'planayotganini anglatadi. Migratsiya jarayonlarining asosiy yo'nalishlari sifatida Rossiya va Qozog'iston davlatlari ajralib turadi. Bu mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalar, mehnat bozori talabi va migratsiya infratuzilmasining shakllanganligi ushbu yo'nalishlarning ustuvorligini belgilab beradi.

Shu bilan birga, migratsiya jarayonlari nafaqat ijobiy, balki salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Jumladan, yuqori malakali kadrlarning mamlakatdan chiqib ketishi ("brain drain"), mehnat resurslari yetishmovchiligi hamda demografik nomutanosibliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu holat ayniqsa uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2-jadval

Migratsiya jarayonlarini boshqarishda Big Data texnologiyalarining afzalliklari, cheklovlari va yechimlari[13]

Yo'nalish	Big Data imkoniyatlari	Foydali jihatlar	Salbiy jihatlar	Muammolar	Taklif etilayotgan yechimlar
Migratsiya monitoringi	Real vaqt ma'lumotlarini yig'ish	Migratsiya oqimlarini tez aniqlash	Ma'lumotlar aniqligi past bo'lishi mumkin	Norasmiy migratsiya yashirin qoladi	Yagona raqamli reyestr yaratish
Proгноzlash	AI va ML asosida tahlil	Migratsiya oqimlarini oldindan baholash	Modellar xatolik ehtimoli	Noto'g'ri qarorlar xavfi	Gibrid (statistik + AI) modellardan foydalanish
Mehnat bozori tahlili	Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash	Talab va taklifni aniqlash	Ma'lumotlar eskirishi mumkin	Skill mismatch	Doimiy yangilanadigan data bazalar
Davlat boshqaruvi	Integratsiyalashgan platformalar	Qaror qabul qilish tezlashadi	Idoralararo moslashuv muammosi	Fragmentatsiya	Yagona migratsiya platformasi
Xavfsizlik	Risklarni aniqlash	Noqonuniy migratsiya ni kamaytirish	Maxfiylik muammolari	Ma'lumotlar himoyasi	Data protection siyosatini kuchaytirish
Migrantlar bilan ishlash	Profil yaratish va kuzatish	Individual yondashuv	Texnologik tengsizlik	Raqamli savodxonlik past	Migrantlarni raqamli o'qitish
Iqtisodiy samaradorlik	Resurslarni optimallashtirish	Xarajatlar ni kamaytirish	Dastlabki investitsiya katta	Moliyaviy yuklama	Davlat-xususiy sheriklik
Tahliliy tizimlar	Kompleks data integratsiyasi	Kompleks qarorlar qabul qilish	Data sifati muammosi	Noto'liq ma'lumotlar	Data standartlashtirish

Manba: Statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun migratsiya jarayonlarini zamonaviy yondashuvlar asosida boshqarish zarur. Xususan, raqamli texnologiyalar, Big Data va sun'iy intellekt asosida migratsiya oqimlarini

monitoring qilish va prognozlash tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa migratsiya jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish va samarali boshqarish imkonini beradi. Bundan tashqari, mehnat migrantlarini tayyorlash, ularning kasbiy va til ko'nikmalarini oshirish, shuningdek, ularni qayta integratsiya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish migratsiya siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, noqonuniy migratsiyani kamaytirish va migrantlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Shunday qilib, migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish uchun kompleks, ya'ni demografik, iqtisodiy va raqamli yondashuvlarni uyg'unlashtirgan holda yagona tizimni shakllantirish talab etiladi. Bu esa mehnat resurslaridan samarali foydalanish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi farovonligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish an'anaviy statistik usullar bilan cheklanib qolmay, Big Data texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi. Yuqoridagi jadvalda Big Data texnologiyalarining migratsiya jarayonlarini tahlil qilishdagi asosiy imkoniyatlari, ularning ijobiy va salbiy jihatlari hamda mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif etilayotgan yechimlar tizimli ravishda aks ettirilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Big Data texnologiyalari migratsiya oqimlarini real vaqt rejimida kuzatish, prognozlash va samarali boshqarish imkonini bersa-da, ma'lumotlar sifati, maxfiylik va institutsional integratsiya bilan bog'liq muammolarni ham yuzaga keltiradi. Shu sababli ushbu texnologiyalarni joriy etishda kompleks yondashuv va zamonaviy axborot xavfsizligi mexanizmlarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va ilmiy takliflar.

Mazkur tadqiqot doirasida O'zbekistonda demografik jarayonlar, xususan o'lim, aholining qarishi hamda migratsiya jarayonlari kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aholining takror barpo bo'lish jarayonlari va migratsiya o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud bo'lib, ayniqsa mehnat resurslari shakllanishi va ulardan foydalanish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tahlillar asosida aniqlanishicha, O'zbekistonda migratsiya jarayonlari asosan iqtisodiy omillar bilan belgilanib, mehnat yoshidagi aholining yuqori ulushi tashqi migratsiyada faol ishtirok etmoqda. Shu bilan birga, migratsiya saldosining manfiyligi mehnat resurslari chiqib ketayotganini

ko'rsatadi va bu holat uzoq muddatda iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aholining qarishi va umr davomiyligidagi gender tafovutlari ham demografik jarayonlarning muhim xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'lib, bu holat ijtimoiy-iqtisodiy tizimga qo'shimcha yuklama keltirib chiqarmoqda. Shu sababli mazkur jarayonlarni ilmiy asosda boshqarish zarurati ortib bormoqda.

Tadqiqot davomida migratsiya jarayonlarini boshqarishda Big Data va raqamli texnologiyalarning ahamiyati alohida asoslab berildi. Mazkur yondashuv migratsiya oqimlarini real vaqt rejimida kuzatish, prognozlash hamda samarali boshqarish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, ma'lumotlar sifati, maxfiylik va institutsional integratsiya bilan bog'liq muammolarni hal etish zarurligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- Migratsiyani boshqarishning yagona raqamli tizimini joriy etish. Mehnat migrantlarini ro'yxatga olish, monitoring qilish va tahlil etish uchun yagona integratsiyalashgan platforma yaratish zarur.

- Big Data asosida migratsiya prognozlash tizimini ishlab chiqish. Sun'iy intellekt va ekonometrik modellardan foydalanish orqali migratsiya oqimlarini oldindan baholash tizimini joriy etish.

- Mehnat migrantlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Xorijga ketayotgan fuqarolar uchun kasbiy va til tayyorgarligini kuchaytirish orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish.

- Reintegratsiya mexanizmlarini rivojlantirish. Xorijdan qaytgan migrantlarni iqtisodiyotga jalb qilish va ularning tajribasidan samarali foydalanish tizimini ishlab chiqish.

- Noqonuniy migratsiyani kamaytirish bo'yicha raqamli nazorat tizimini joriy etish. Yagona reyestr va monitoring tizimi orqali migratsiya jarayonlarini shaffoflashtirish.

- Hududiy rivojlanish siyosatini kuchaytirish. Ichki migratsiyani muvozanatlashtirish maqsadida hududlarda yangi ish o'rinlarini yaratish va infratuzilmani rivojlantirish.

- Sog'liqni saqlash va demografik siyosatni uyg'unlashtirish. O'lim darajasini kamaytirish va umr davomiyligini oshirish orqali mehnat resurslari sifatini yaxshilash.

- Axborot xavfsizligi va ma'lumotlar himoyasini kuchaytirish. Big Data tizimlarini joriy etishda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. PQ-12, 17.01.2025.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qarori. PQ-149, 01.03.2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF-60, 28.01.2022.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kambag'allikni qisqartirish davlat jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori. №158, 11.03.2025.
5. Demografiya asoslari: darslik / umumiy tahrir ostida. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
6. Ravenstein E.G. The Laws of Migration // Journal of the Statistical Society. – 1885.
7. Todaro M.P. Economic Development. – New York: Addison-Wesley, 2011.
8. Lee E.S. A Theory of Migration // Demography. – 1966.
9. World Bank. Migration and Development Report. – Washington DC, 2023.
10. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. – Toshkent: Fan, 2021.
11. United Nations. International Migration Report. – New York, 2022.
12. OECD. International Migration Outlook. – Paris, 2023.
13. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining demografik ko'rsatkichlari. – Toshkent, 2025.

O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK RIVOJLANISHNING ASOSIY TENDENSIYALARI VA OMILLARI

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

*TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"
ilmiy-tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi
ORCID: 0000-0002-3742-5622*

Sayfiddinov Amirxon Davlatovich

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston
iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot
markazining "Demografiya va mehnat bozori" sektorida stajyor-tadqiqotchi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti
ORCID: 0009-0001-0777-2930
amirjan.sayfiddinov0203@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda demografik rivojlanish jarayonlari, aholi sonining o'sishi, hududiy taqsimlanishi, yosh va jins tarkibi hamda tug'ilish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida demografik jarayonlarga ta'sir etuvchi asosiy omillar, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, migratsiya va reproduktiv xulq-atvor o'rganildi. Shuningdek, hududlar kesimida demografik tafovutlar aniqlanib, ularning shakllanish sabablari asoslab berildi. Tadqiqot natijalari asosida demografik rivojlanishni samarali boshqarish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar. demografik rivojlanish, aholi soni, yosh va jins tarkibi, tug'ilish, migratsiya, demografik omillar

ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ФАКТОРЫ ДЕМОГРАФИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Баҳриддинова Муаззам Азам кизи

*Научно-исследовательский центр
«Научные основы и проблемы
развития экономики Узбекистана» при ТГЭУ*

Сайфиддинов Амирхон Давлатович

Стажер-исследователь научно-исследовательского центра «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» в секторе «Демография и рынок труда» при Ташкентском Государственном Экономическом Университете
Магистрант Ташкентского Государственного Экономического Университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются процессы демографического развития в Республике Узбекистан, включая рост численности населения, территориальное распределение, возрастную-половую структуру и процессы рождаемости. В ходе исследования выявлены основные факторы, влияющие на демографические процессы, в том числе социально-экономические условия, миграция и репродуктивное поведение. Также определены региональные различия демографического развития и обоснованы причины их формирования. По результатам исследования разработаны научные рекомендации по эффективному управлению демографическим развитием.

Ключевые слова: демографическое развитие, численность населения, возрастная-половая структура, рождаемость, миграция, демографические факторы

MAIN TRENDS AND FACTORS OF DEMOGRAPHIC DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN**Bahriddinova Muazzam Azam qizi**

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of Economic Development of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics

Sayfiddinov Amirkhon Davlatovich

*Intern-researcher at the "Scientific Foundations and Problems of Uzbekistan's Economic Development" Research Center in the "Demography and Labor Market" sector under the Tashkent State University of Economics
Master's student at Tashkent State University of Economics*

Abstract. *This article examines the processes of demographic development in Uzbekistan, including population growth, territorial distribution, age and gender structure, and fertility trends. The study identifies key factors influencing demographic processes, such as socio-economic conditions, migration, and reproductive behavior. Regional disparities in demographic development are also analyzed, and their underlying causes are explained. Based on the findings, scientific recommendations for effective management of demographic development are proposed.*

Keywords: *demographic development, population size, age and gender structure, fertility, migration, demographic factors*

Kirish.

Demografik jarayonlar jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanib, aholining takror barpo bo'lishi, hududiy joylashuvi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liqdir. Aholi soni va tarkibidagi o'zgarishlar nafaqat demografik holatni, balki mehnat bozori, ijtimoiy infratuzilma va iqtisodiy o'sish sur'atlarini ham belgilab beradi [9]. So'nggi yillarda O'zbekistonda demografik rivojlanishni tartibga solish, oilani mustahkamlash va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-87-son Farmoni doirasida oila institutini qo'llab-quvvatlash, demografik tadqiqotlarni rivojlantirish hamda "Oilaviy demografiya" yo'nalishida ilmiy izlanishlarni kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Mazkur hujjat demografik jarayonlarni ilmiy asosda o'rganish va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirdi. Shuningdek, demografik ma'lumotlar bazasini shakllantirish va milliy axborot resurslarini rivojlantirish masalalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 888-son qarori bilan ham mustahkamlangan bo'lib, unda global axborot makonida

milliy kontentni kengaytirish vazifalari belgilangan [2]. Bu esa demografik statistik ma'lumotlarning ochiqqligi, aniqligi va tizimlilikini ta'minlashga xizmat qiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil holatiga O'zbekiston Respublikasi aholisi soni 38 milliondan oshib, aholining zichligi 1 kvadrat kilometrda 83,6 nafarni tashkil etgan [9]. Ushbu ko'rsatkichlarning o'sib borishi mamlakatda demografik bosimning ortib borayotganligini va resurslardan samarali foydalanish zaruratini ko'rsatadi. Ayniqsa, hududlar kesimida aholi joylashuvi va zichligidagi keskin tafovutlar demografik siyosatni differensial yondashuv asosida olib borishni talab etadi. Shu bilan birga, aholi tarkibining yosh va jins bo'yicha o'zgarishi, tug'ilish darajasi hamda migratsiya jarayonlari mamlakat demografik rivojlanishining muhim indikatorlari sifatida namoyon bo'lmoqda [9]. Ushbu ko'rsatkichlarni chuqur tahlil qilish demografik jarayonlarning istiqboldagi tendensiyalarini aniqlash hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Demografik jarayonlar va aholi rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ushbu yo'nalish ilmiy jihatdan keng qamrovli nazariy va amaliy asosga ega. Xorijiy tadqiqotchilar orasida demografiya fanining metodologik asoslarini shakllantirishda A. Quetelet muhim o'rin tutadi. U aholini statistik jihatdan o'rganish metodlarini ishlab chiqib, demografik jarayonlarni matematik modellashtirish zarurligini asoslab bergan [1]. Shuningdek, u tomonidan aholining turli kategoriyalarga (doimiy, mavjud va yuridik aholi) ajratilishi demografik hisob-kitoblarning aniqligini oshirishga xizmat qilgan.

Demografik rivojlanish nazariyasini chuqur tahlil qilgan olimlardan biri T.R. Malthus hisoblanadi. U aholi sonining geometrik o'sishi va resurslarning arifmetik o'sishi o'rtasidagi nomutanosiblikni asoslab, demografik bosim tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan [2]. Mazkur yondashuv hozirgi kunda ham aholining tez o'sishi sharoitida resurslardan oqilona foydalanish muammolarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy demografik jarayonlarni o'rganishda K. Davis tomonidan ishlab chiqilgan demografik o'tish nazariyasi alohida o'rin tutadi. Unga ko'ra, jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida tug'ilish va o'lim darajasi o'zgarib boradi, natijada aholi o'sish sur'atlari ham transformatsiyalanadi

[3]. Ushbu nazariya rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston demografik jarayonlarini tushuntirishda keng qo'llaniladi.

Mahalliy olimlar orasida demografik jarayonlarni o'rganishga katta hissa qo'shgan tadqiqotchilardan biri Z.N. Tojieva hisoblanadi. U o'z ilmiy ishlarida O'zbekistonda aholi o'sishi, hududiy joylashuvi va migratsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan [4]. Ayniqsa, hududlar kesimida demografik tafovutlarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlari amaliy ahamiyatga ega. Shuningdek, Q.X. Abdurahmonov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mehnat resurslari shakllanishi demografik omillar bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan bo'lib, aholi tarkibidagi o'zgarishlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri asoslab berilgan [5]. Olimning ilmiy ishlari demografik jarayonlar va mehnat bozori o'rtasidagi bog'liqlikni yoritishda muhim manba hisoblanadi. Bundan tashqari, L.P. Maksakova tomonidan Markaziy Osiyo mamlakatlarida demografik jarayonlar, xususan, migratsiya va urbanizatsiya tendensiyalari o'rganilgan [6]. Uning tadqiqotlari hududiy demografik rivojlanish xususiyatlarini aniqlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, demografik jarayonlarni kompleks o'rganish uchun statistik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni uyg'un holda tahlil qilish zarur. Bu esa O'zbekiston sharoitida demografik rivojlanish ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish va ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda demografik jarayonlarni kompleks o'rganish maqsadida umumilmiy va maxsus tadqiqot usullaridan foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez usullari orqali aholi soni, tarkibi hamda demografik jarayonlarning asosiy ko'rsatkichlari tizimli ravishda o'rganildi.

Statistik tahlil usuli asosida O'zbekiston Respublikasida aholi soni, zichligi, yosh va jins tarkibi hamda tug'ilish ko'rsatkichlarining dinamikasi baholandi. Taqqoslash usuli yordamida hududlar kesimida demografik farqlar aniqlanib, ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Shuningdek, demografik ko'rsatkichlarni hisoblashda mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar tizimi, demografik balans hamda koeffitsiyentlar usulidan foydalanildi. Bu yondashuv aholining takror barpo bo'lishi jarayonlarini kompleks baholash imkonini berdi. Natijalarni yanada aniqroq ifodalash maqsadida grafik va jadval usullaridan ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasida aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi demografik jarayonlarning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u tabiiy o'sish, migratsiya jarayonlari hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liq[7]. Aholining notekis joylashuvi mamlakatda demografik va iqtisodiy rivojlanishning hududlar kesimidagi farqlarini aks ettiradi. Mazkur tadqiqotda hududlar kesimida qiyosiy tahlilni amalga oshirish uchun aholi soni bo'yicha eng yuqori va eng past ko'rsatkichlarga ega hududlar tanlab olindi. Ushbu yondashuv demografik tafovutlarni yanada aniqroq ochib berish hamda ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Xususan, yuqori ko'rsatkichga ega hududlar demografik faollik va resurslardan foydalanish intensivligini ifodalasa, past ko'rsatkichli hududlar esa tabiiy va iqtisodiy cheklovlar mavjudligini ko'rsatadi.

1-jadval.

**Aholi soni bo'yicha eng yuqori va eng past hududlar
(2025-yil, ming kishi)[9]**

Hududlar	Aholi soni (ming)
Samarqand viloyati	4275,3
Farg'ona viloyati	4123,6
Sirdaryo viloyati	926,7
Navoiy viloyati	1090,0

Jadvalda keltirilgan hududlar tasodifiy tanlanmagan bo'lib, ular mamlakatdagi demografik holatning ikki qarama-qarshi qutbini ifodalaydi. Xususan, Samarqand va Farg'ona viloyatlari aholisi soni bo'yicha yetakchi hududlar sifatida tanlangan bo'lsa, Sirdaryo va Navoiy viloyatlari eng past ko'rsatkichlarga ega hududlar sifatida ajratib olingan. Ushbu hududlarning boshqa viloyatlardan farqli jihati shundaki, ular aholi zichligi, tabiiy o'sish darajasi hamda iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha keskin tafovutlarga ega. Masalan, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida tarixan shakllangan zich aholi joylashuvi, qulay tabiiy-iqlim sharoiti hamda qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanganligi aholining yuqori konsentratsiyasini ta'minlagan. Bundan farqli ravishda, Navoiy viloyatida hududning katta qismi cho'l zonalaridan iborat bo'lib, bu yerda aholi zich joylashmagan. Sirdaryo viloyatida esa yer

resurslarining cheklanganligi va iqtisodiy faoliyatning nisbatan tor ixtisoslashuvi aholi sonining past darajada shakllanishiga olib kelgan. Shuningdek, ushbu hududlar o'rtasidagi tafovut migratsiya jarayonlari bilan ham izohlanadi. Rivojlangan hududlarga ichki migratsiya oqimining yuqoriligi aholi sonining yanada ortishiga xizmat qilsa, iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan hududlarda esa aksincha, migratsiya chiqimi kuzatiladi. Natijada, tanlab olingan hududlar misolida O'zbekistonda aholi sonining hududiy tafovutlari nafaqat demografik, balki iqtisodiy va geografik omillar bilan ham belgilanishi aniqlandi.

Hududlar kesimida aholi soni va uning taqsimlanishini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar hududlar bo'yicha notekis shakllangan. Mamlakatning ayrim viloyatlarida aholi soni va ulushi yuqori bo'lsa, boshqa hududlarda ushbu ko'rsatkichlar nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda. Aholining hududiy taqsimlanishidagi bunday farqlar tasodifiy emas, balki bir qator omillar bilan izohlanadi. Xususan, aholisi ko'p bo'lgan hududlar, odatda, tarixan shakllangan zich aholi punktlari, qulay tabiiy-iqlim sharoiti va rivojlangan qishloq xo'jaligi hamda xizmat ko'rsatish sohalari bilan ajralib turadi. Bu omillar ushbu hududlarda tabiiy o'sish darajasining yuqoriligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, aholisi kam bo'lgan hududlarda tabiiy-geografik sharoitning murakkabligi, xususan cho'l zonalarining kengligi, suv resurslarining cheklanganligi hamda iqtisodiy faoliyatning nisbatan tor ixtisoslashuvi demografik o'sishni cheklovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Natijada, bu hududlarda aholi zichligi va umumiy soni past darajada shakllanadi. Bundan tashqari, hududlar kesimida migratsiya jarayonlari ham muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan va infratuzilmasi yaxshi shakllangan hududlarga ichki migratsiya oqimining yuqoriligi aholi sonining ortishiga xizmat qilsa, aksincha, imkoniyatlari cheklangan hududlarda migratsiya chiqimi kuzatiladi. Umuman olganda, O'zbekistonda aholi sonining hududiy tafovutlari tabiiy, iqtisodiy va migratsion omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanib, bu holat demografik siyosatni hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Aholining yosh va jins tarkibi demografik jarayonlarni baholashda muhim o'rin tutib, u mamlakatning mehnat resurslari salohiyati, ijtimoiy yuklama darajasi hamda kelgusidagi demografik rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beradi. Shu bois, mazkur ko'rsatkichlarni tahlil qilish demografik siyosatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra,

O'zbekiston Respublikasida doimiy aholi sonida erkaklar ulushi 19,1 million nafardan ortiqni, ayollar esa 18,9 million nafarga yaqinini tashkil etgan bo'lib, jinsiy tarkibda nisbiy muvozanat kuzatiladi[9]. Bu holat demografik barqarorlikning muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Aholining yosh tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatda yoshlar ulushi yuqori bo'lib, ayniqsa 0–5 yosh guruhida aholining salmoqli qismi jamlangan. Ushbu holat tug'ilish darajasining yuqoriligi bilan izohlanib, demografik jarayonlarning faol kechayotganligini bildiradi. Shu bilan birga, yuqori yosh guruhlarida (60 yosh va undan yuqori) aholi ulushining nisbatan pastligi O'zbekiston aholisi tarkibining "yosh" tipga mansubligini ko'rsatadi. Bunday demografik tuzilma mehnat resurslarining kelgusida ortib borishini ta'minlashda, ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlik tizimlariga qo'shimcha yuklama keltirib chiqaradi.

Aholining yosh va jins tarkibini chuqurroq tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, yosh guruhlar bo'yicha erkaklar va ayollar sonida ma'lum tafovutlar mavjud. Xususan, yosh guruhlarda erkaklar ulushi nisbatan yuqori bo'lsa, katta yosh guruhlarida ayollar ulushi ustunlik qiladi. Bu holat erkaklar o'rtasida o'lim darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi. Shuningdek, yosh tarkibining bunday shakllanishi demografik jarayonlarning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini ham belgilab beradi. Yuqori tug'ilish darajasi saqlanib qolgan sharoitda aholi sonining o'sish sur'atlari davom etishi kutiladi, bu esa mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni uzoq muddatli rejalashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Demografik jarayonlar tizimida tug'ilish darajasi aholi sonining shakllanishi va uning o'sish sur'atlarini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tug'ilish ko'rsatkichlari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, aholining turmush sharoiti hamda reproduktiv xulq-atvor xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq.

2025-yil yanvar–oktabr oylarida O'zbekiston Respublikasida jami 926,4 ming nafar tirik tug'ilish holati qayd etilgan bo'lib, shundan 479,5 ming nafari o'g'il bolalar, 446,9 ming nafari esa qiz bolalar hissasiga to'g'ri keladi[9]. Ushbu ko'rsatkich tug'ilish darajasining yuqoriligi va aholi sonining tabiiy o'sishi barqaror davom etayotganligini ko'rsatadi. Tug'ilish jarayonlarini hududiy jihatdan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mamlakatda tug'ilish darajasi hududlar kesimida sezilarli darajada farqlanadi. Aholisi zich joylashgan va an'anaviy oilaviy qadriyatlar kuchli saqlanib qolgan hududlarda tug'ilish ko'rsatkichlari yuqori

bo'lsa, urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlarda bu ko'rsatkich nisbatan pastroq shakllanadi. Shuningdek, tug'ilish jarayonlarini tahlil qilishda ota-onaning yoshi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, tug'ilgan bolalarning asosiy qismi 25–39 yoshdagi ota-onalar hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa reproduktiv faollikning aynan ushbu yosh oralig'ida eng yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Reproduktiv xulq-atvorni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, aholining farzandlar soniga bo'lgan ehtiyoji ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida shakllanadi. An'anaviy jamiyatlarda ko'p bolalilikka intilish ustun bo'lsa, zamonaviy iqtisodiy sharoitda kam bolalilik tendensiyasi kuchayib bormoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida o'rta bolalilik modeli ustunlik qilayotgani kuzatiladi [20]. Tug'ilish jarayonlarining yana bir muhim jihati uning tarkibiy xususiyatlari bilan bog'liq. Xususan, tug'ilishlarning asosiy qismi yakka tug'ilishlarga to'g'ri kelib, ko'p homilali tug'ilishlar ulushi juda past darajada saqlanib qolmoqda. Bu esa demografik jarayonlarning tabiiy va barqaror kechayotganligini ko'rsatadi [21].

Umuman olganda, O'zbekistonda tug'ilish darajasining nisbatan yuqori saqlanib qolishi aholining yosh tarkibi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu holat kelgusida aholi sonining o'sish sur'atlari davom etishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, reproduktiv xulq-atvordagi o'zgarishlar va urbanizatsiya jarayonlari tug'ilish darajasiga ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

2-jadval.

Tug'ilish jarayonlariga ta'sir etuvchi omillar va ularning oqibatlarini [9]

Omillar	Ta'sir mexanizmi	Natija
Yuqori tug'ilish yoshidagi aholi ulushi	Reproduktiv faollikning ortishi	Tug'ilish darajasining yuqoriligi
An'anaviy oilaviy qadriyatlar	Ko'p bolalilikka ijtimoiy rag'bat	Aholi sonining tabiiy o'sishi
Iqtisodiy sharoitlar	Farzandlar sonini rejalashtirish	Tug'ilish darajasining differensialligi
Urbanizatsiya jarayonlari	Hayot tarzining o'zgarishi	Tug'ilishning pasayish tendensiyasi
Ayollarning bandligi va ta'limi	Tug'ishni kechiktirish	Kam bolalilik modelining kuchayishi

Manba: Statistik raqamlar asosida muallif ishlanmasi.

Keltirilgan jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tug'ilish jarayonlari ko'p omilli xarakterga ega bo'lib, ularning shakllanishida ijtimoiy, iqtisodiy va

demografik omillar o'zaro bog'liq holda ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, reproduktiv yoshdagi aholi ulushining yuqoriligi va an'anaviy qadriyatlarning saqlanib qolishi tug'ilish darajasining barqaror yuqori bo'lishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, urbanizatsiya va ayollarning ijtimoiy faolligining ortishi tug'ilish jarayonlariga teskari ta'sir ko'rsatib, kelgusida tug'ilish darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatdi. Aholi sonining ortib borishi, uning hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishi hamda yosh tarkibining "yosh" tipga mansubligi mamlakat demografik rivojlanishining asosiy xususiyatlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, aholi sonining hududlar kesimida farqlanishi tabiiy-iqlim sharoiti, iqtisodiy rivojlanish darajasi va migratsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, aholining yosh tarkibida yoshlar ulushining yuqoriligi kelgusida mehnat resurslari salohiyatining ortishini ta'minlasa-da, ijtimoiy infratuzilma va bandlik tizimiga qo'shimcha yuklama keltirib chiqaradi. Tug'ilish jarayonlari tahlili esa O'zbekistonda tabiiy o'sishning asosiy manbai sifatida yuqori tug'ilish darajasi saqlanib qolayotganligini ko'rsatdi. Reprodukativ xulq-atvor esa ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida shakllanib, zamonaviy sharoitda ma'lum darajada transformatsiyalanib bormoqda.

Umuman olganda, mamlakatda demografik jarayonlar ijobiy tendensiyaga ega bo'lsa-da, ularni samarali boshqarish hududiy va ijtimoiy xususiyatlarni inobatga olgan holda amalga oshirilishi zarur.

1. Hududiy demografik siyosatni differensiallashtirish. Aholi zich joylashgan hududlarda infratuzilmani kengaytirish, kam aholi yashaydigan hududlarda esa iqtisodiy rag'batlantirish choralarini kuchaytirish zarur.

2. Yoshlar bandligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish. Aholining yosh tarkibi yuqori ekanligini inobatga olib, yangi ish o'rinlarini yaratish va kasbiy tayyorgarlik tizimini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

3. Reprodukativ salomatlik va oilaviy siyosatni kuchaytirish. Tug'ilish jarayonlarini tartibga solishda tibbiy xizmatlar sifatini oshirish hamda oilani qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish lozim.

4. Urbanizatsiya jarayonlarini muvozanatlash. Yirik shaharlarda demografik bosimni kamaytirish maqsadida hududlararo iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish zarur.

5. Demografik monitoring tizimini takomillashtirish. Aholi soni, tarkibi va harakatini muntazam tahlil qilish uchun zamonaviy statistik va raqamli platformalarni rivojlantirish talab etiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 2019-yil 21-oktabrdagi 888-son qarori "Milliy kontentni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".

3. Quetelet A. *Sur l'homme et le développement de ses facultés*. – Paris, 1835.

4. Malthus T.R. *An Essay on the Principle of Population*. – London, 1798.

5. Davis K. *The Theory of Change and Response in Modern Demographic History* // *Population Index*. – 1945.

6. Tojjeva Z.N. *O'zbekistonda demografik jarayonlar tahlili*. – Toshkent, 2019.

7. Abdurahmonov Q.X. *Mehnat iqtisodiyoti*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

8. Lyudmila Maksakova L.P. *Демография и миграция в странах СНГ*. – Москва, 2018.

9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *O'zbekiston Respublikasining demografik ko'rsatkichlari*. – Toshkent, 2025.

ECONOMETRIC ASSESSMENT OF THE IMPACT OF POPULATION REPRODUCTION PROCESSES ON THE FORMATION OF ECONOMICALLY ACTIVE POPULATION

Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich

Doctoral researcher at the scientific research center "Scientific foundations and problems of developing the economy of Uzbekistan" under Tashkent state university of economics
hamrokulovmirabbos073@gmail.com

Abstract. This article analyzes population reproduction processes and factors influencing the formation of economically active population using the case of Kashkadarya region. The study employs panel econometric models based on district-level statistical data for 2012–2024. In particular, Fixed Effects and Random Effects models are applied, and the Hausman test is conducted to determine the most appropriate model. The results confirm the significant impact of demographic factors on economic activity.

Keywords: population reproduction, demographic processes, economically active population, panel data, Fixed Effects, Random Effects, migration, employment.

АҲОЛИ ТАКРОР БАРПО БЎЛИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛ АҲОЛИ ШАКЛЛАНИШИГА ТАЪСИРИНИ ПАНЕЛ ЭКОНОМЕТРИК БАҲОЛАШ

Ҳамрокулов Мираббос Ортиқович

ТДИУ ҳузуридаги "Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари" илмий-тадқиқот маркази докторанти

Аннотация. Мазкур тадқиқот аҳоли такрор барпо бўлиш жараёнларининг иқтисодий фаол аҳоли шаклланишига таъсирини баҳолашга бағишланган. Изланиш давомида 2012–2024 йилларни қамраб олган туманлар кесимидаги статистик маълумотлар асосида панел эконометрик таҳлил ўтказилди. Хусусан, демографик ва иқтисодий

омилларнинг таъсир даражасини аниқлаш мақсадида *Fixed Effects* ва *Random Effects* моделлари қўлланилиб, *Haustman* тести ёрдамида энг мақбул модель танлаб олинди. Олинган натижалар ҳудудларда кечаётган демографик жараёнлар иқтисодий фаол аҳоли шаклланишига сезиларли таъсир кўрсатишини кўрсатди.

Калит сўзлар: аҳоли такрор барпо бўлиши, демографик жараёнлар, иқтисодий фаол аҳоли, панел маълумотлар, *Fixed Effects*, *Random Effects*, миграция, бандлик.

ЭКОНОМЕТРИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ПРОЦЕССОВ ВОСПРОИЗВОДСТВА НАСЕЛЕНИЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИ АКТИВНОГО НАСЕЛЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)

Хамрокулов Миrabбос Ортикович

Докторант Научно-исследовательского центра

“Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана”
при Ташкентском государственном экономическом университете

Аннотация. В данной статье на примере Кашкадарьинской области проанализированы процессы воспроизводства населения и факторы, влияющие на формирование экономически активного населения. В исследовании использованы панельные эконометрические модели на основе статистических данных за 2012–2024 годы в разрезе районов. В частности, применены модели *Fixed Effects* и *Random Effects*, а также проведен тест Хаусмана для выбора оптимальной модели. Полученные результаты подтверждают значительное влияние демографических факторов на экономическую активность населения.

Ключевые слова: воспроизводство населения, демографические процессы, экономически активное население, панельные данные, *Fixed Effects*, *Random Effects*, миграция, занятость.

Introduction.

Under conditions of modern economic development, demographic processes and population reproduction are considered among the key factors

underpinning sustainable economic growth. Population reproduction processes are manifested through demographic indicators such as fertility, mortality, and migration, which directly influence the age-sex structure of the population, the formation of labour resources, and the level of economic activity. In particular, regional disparities in demographic processes are closely associated with the level of economic development, urbanization trends, labour market conditions, and the degree of social infrastructure development. As a result, some regions experience rapid population growth and an expansion of labour resources, whereas others undergo structural demographic changes under the influence of migration processes. This necessitates an in-depth territorial analysis of population reproduction processes.

At present, alongside traditional analytical methods, econometric models have become increasingly important in the study of demographic processes. Econometric approaches make it possible to quantitatively assess the impact of demographic factors on economic indicators, identify interrelationships among variables, and derive scientifically grounded conclusions. In particular, Fixed Effects and Random Effects models based on panel data provide effective tools for conducting analyses while accounting for regional heterogeneity. Furthermore, time series models, especially ARIMA models, play an important role in evaluating temporal trends in demographic and economic indicators and forecasting their future trajectories. These models enable researchers to predict future dynamics in the economically active population and assess potential changes in labour market conditions in advance.

The main objective of this study is to conduct a comprehensive analysis of population reproduction processes in the Kashkadarya region across both territorial and temporal dimensions, to evaluate the impact of demographic factors on the formation of the economically active population using econometric models, and to forecast future development trends of these processes.

Literature Review.

Population reproduction processes and demographic development constitute one of the major areas of economic and social research. Studies undertaken in this field have provided deeper insights into the interrelationship between population dynamics, labour resource formation, and economic growth.

Fundamental contributions to demographic studies were made by V.A. Borisov, who explained population reproduction processes through the factors of fertility, mortality, and migration [1]. Likewise, foreign scholars such as A. Coale and E. Hoover analysed the relationship between population growth and economic development, substantiating the influence of demographic factors on economic processes [2]. J. Caldwell developed the theory of demographic transition, demonstrating the connection between population reproduction processes and stages of socio-economic development [3].

In recent years, econometric approaches have been widely applied in the analysis of demographic processes. In particular, R. Lee and A. Mason examined the relationship between population age structure and economic growth using econometric models and provided a scientific foundation for the concept of the demographic dividend [4]. Similarly, D. Bloom and J. Williamson evaluated the relationship between population growth and economic development using panel data methods, identifying the impact of demographic factors on economic growth [5]. The analysis and forecasting of demographic processes through time series techniques have also attracted considerable attention. In this regard, ARIMA models developed by G. Box and G. Jenkins have been extensively employed and recognized as effective tools for forecasting population size and demographic indicators [6].

Within the context of Uzbekistan, the studies conducted by Z.N. Tojiev, L.P. Maksakova, and B.H. Umurzakov are of particular significance, as they examine the regional characteristics of population distribution, labour resources, and migration processes [7,8,9]. However, in the existing literature, the impact of demographic factors on the formation of the economically active population has largely been addressed from a qualitative perspective, whereas comprehensive regional assessments based on panel econometric techniques, particularly Fixed Effects and Random Effects models, remain insufficiently explored. This gap underscores both the scientific novelty and the relevance of the present study.

Research methodology.

This study employs a comprehensive scientific approach to assess population reproduction processes and the factors influencing the formation of the economically active population. The theoretical foundation of the research is

based on demographic development theories and scholarly perspectives related to the analysis of economic processes.

During the research process, statistical analysis, comparative analysis, grouping techniques, and time series analysis methods were applied. In addition, econometric models were extensively employed to identify the interrelationships between demographic and economic indicators. The empirical database of the study consists of official district-level statistical data for the Kashkadarya region covering the period 2012–2024. Based on these data, a panel dataset was constructed, with the economically active population considered as the dependent variable. Permanent population size, employment rate, fertility indicators, and migration variables were included in the model as independent variables.

For the econometric analysis, Fixed Effects and Random Effects models based on panel data techniques were utilized.

$$Y_{it} = \beta_0 + \beta_1 X1_{it} + \beta_2 X2_{it} + \beta_3 X3_{it} + \beta_4 X4_{it} + u_{it}$$

Бу ерда:

- Y_{it} — economically active population
- $X1$ — permanent population number
- $X2$ — employment rate
- $X3$ — birth rate
- $X4$ — migration
- u_{it} — random error term

Through these models, the impact of demographic factors on the economically active population was quantitatively assessed while accounting for regional heterogeneity. To determine the most appropriate specification, the Hausman test was employed to compare the Fixed Effects and Random Effects models. In addition, time series analysis techniques, particularly the ARIMA model, were applied to examine the dynamics of the economically active population and to forecast its future trends. This approach made it possible to identify expected changes in the indicator over the coming years. Furthermore, tables and graphical methods were used to visualize and interpret the research findings.

Analysis. An analysis of population reproduction processes and the formation of the economically active population in the Kashkadarya region requires an in-depth examination of regional demographic and economic factors. Variations across districts in terms of population size, fertility rates, migration processes, and employment indicators have a direct influence on the dynamics of the economically active population. The conducted analysis indicates that, in some districts, rapid population growth contributes to the expansion of labour resources, whereas in other areas migration processes lead to structural changes in the composition of the economically active population. This underscores the need to assess these processes not only through conventional analytical methods but also through econometric approaches.

To this end, an econometric analysis based on panel data was carried out in the present study. The analysis utilized district-level statistical data for the Kashkadarya region covering the period from 2012 to 2024. The economically active population was specified as the dependent variable, while permanent population size, employment rate, fertility indicators, and migration variables were incorporated into the model as independent variables [10].

To account for regional heterogeneity, Fixed Effects and Random Effects panel models were employed. These models made it possible to quantitatively evaluate the influence of demographic and economic factors on the economically active population and to identify the interrelationships among the variables.

Table – 1.

Results of the Fixed Effects Model

Variable	Coefficient	Standard error	t-stat	P-value
C	5.21	1.84	2.83	0.005
Number of permanent population (X1)	0.62	0.08	7.75	0.000
Employment (X2)	0.48	0.11	4.36	0.000
Birth (X3)	0.15	0.09	1.67	0.096
Migration (X4)	-0.07	0.05	-1.40	0.162

According to the results of the Fixed Effects model, the factors influencing the economically active population exhibit varying effects across regions. In particular, permanent population size ((X₁)) was found to have a positive and highly statistically significant impact on the economically active population

(($p < 0.01$)). This indicates that population growth contributes to the expansion of labour resources. The employment rate ((X₂)) also exerts a positive influence on the economically active population, with its coefficient being statistically significant at the 1 percent level (($p < 0.01$)). This finding confirms the direct effect of labour market participation on the level of economic activity within the population.

The fertility indicator ((X₃)) demonstrates a positive effect and is statistically significant at a relatively lower level (($p < 0.1$)). This suggests that population growth contributes to an increase in the economically active population. Although migration factors ((X₄)) exhibit a negative effect, their coefficients were found to be statistically insignificant (($p > 0.05$)). This may be explained by the heterogeneous impact of migration processes across different regions.

Table – 2.

Results of the Random Effects model

Variable	Coefficient	Standard error	t-stat	P-value
C	4.88	1.92	2.54	0.011
Number of permanent population (X ₁)	0.59	0.07	8.12	0.000
Employment (X ₂)	0.44	0.10	4.10	0.000
Birth (X ₃)	0.13	0.08	1.62	0.105
Migration (X ₄)	-0.05	0.04	-1.25	0.211

According to the results of the Random Effects model, the factors influencing the economically active population were evaluated based on overall trends. In particular, permanent population size ((X₁)) was found to have a positive and statistically significant impact on the economically active population (($p < 0.01$)). This suggests that population growth contributes to the expansion of labour resources. The employment rate ((X₂)) also exhibited a positive effect, and its statistical significance was confirmed (($p < 0.01$)). This indicates that labour market participation is an important determinant in the formation of the economically active population. Although the fertility indicator ((X₃)) showed a positive effect, it was not found to be statistically significant (($p > 0.05$)). Migration ((X₄)) exerted a negative influence; however, its statistical significance was not confirmed.

The results of the Random Effects model also reaffirmed the importance of permanent population size and the employment rate as the principal determinants of the economically active population.

To determine the appropriate model specification, the Hausman test was conducted to compare the Fixed Effects and Random Effects models. The test results indicated that the p-value was less than 0.05, implying that the Fixed Effects model is preferable. Therefore, the Fixed Effects model was selected as the primary model for this study.

Overall, the findings demonstrate that the economically active population in the Kashkadarya region is largely shaped by demographic and economic factors. In particular, permanent population size and the employment rate were identified as the main determinants influencing the economically active population.

Conclusions and Recommendations.

The findings of the study indicate that population reproduction processes and the formation of the economically active population in the Kashkadarya region are shaped by both demographic and economic factors. The results of the panel econometric analysis reveal that permanent population size and the employment rate are the most influential determinants of the economically active population. Although the fertility indicator exhibits a positive effect, its influence was found to be relatively limited, while migration processes were observed to have heterogeneous effects across districts. By accounting for regional characteristics, the Fixed Effects model was identified as the preferred specification. Overall, the results confirm the necessity of analysing population reproduction processes through a comprehensive econometric framework.

Based on the findings of the study, the following recommendations are proposed:

- It is advisable to develop a differentiated demographic policy that takes into account regional variations in population reproduction processes.
- Programmes aimed at improving employment opportunities should be strengthened in the Kashkadarya region to ensure more efficient utilization of labour resources.
- In areas characterized by high fertility rates and rapid population growth, greater efforts should be directed towards job creation in order to increase the share of the economically active population.

- Mechanisms for regulating migration processes and facilitating the reintegration of returning labour migrants into economic activity should be further improved.
- Wider application of panel data techniques and econometric models in the analysis of demographic and economic processes is recommended to enhance the quality and reliability of policy-oriented research.

References:

1. Борисов В.А. Демография. – М.: Нота Бене, 2001.
2. Коул А., Гувер Э. Рост населения и экономическое развитие. – М.: Прогресс, 1970.
3. Caldwell J.C. *Theory of Fertility Decline*. – London: Academic Press, 1982.
4. Lee R., Mason A. *Population Aging and the Generational Economy*. – Cheltenham: Edward Elgar, 2011.
5. Bloom D., Williamson J. *Demographic Transitions and Economic Growth*. – Cambridge: NBER, 1998.
6. Box G.E.P., Jenkins G.M. *Time Series Analysis: Forecasting and Control*. – Wiley, 2015.
7. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси географияси. – Т.: Университет, 2010.
8. Максакова Л.П. Демографическое развитие Узбекистана. – Т.: Фан, 2004.
9. Умурзаков Б.Х. Меҳнат бозори ва демографик жараёнлар. – Т.: Иқтисодиёт, 2018.
10. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Демографик йиллик тўплам. – Тошкент, 2023.

HON DEMOGRAFIK RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

Omanova Kamola Botir qizi

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"

ilmiy-tadqiqot markazi stajyor-tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0003-1371-2509

kamolabotirovna97@gmail.com

Saidova Sevara Yormamat qizi

"TDIU huzuridagi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"

ilmiy-tadqiqot markazi "Demografiya va mehnat bozori" sektori stajyor- tadqiqotchisi,

TDIU 1-kurs magistratura talabasi

ORCID: 0009-0005-5024-3718

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahon demografik rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va ularning istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqotda aholi sonining o'sishi, tug'ilish darajasining pasayishi, aholining qarishi, migratsiya jarayonlarining kengayishi hamda hududiy demografik nomutanosibliklar statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Shuningdek, global demografik jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri baholanib, ularni tartibga solish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: demografik rivojlanish, aholi soni, tug'ilish, o'lim, migratsiya, aholi qarishi, mehnat resurslari, demografik siyosat, global tendensiyalar

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЕМОГРАФИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ МИРА

Оманова Камола Ботир кизи

стажер-исследователь Научно-исследовательского центра "Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана" при ТГЭУ

Саидова Севара Ёрмамат кизи

стажер-исследователь сектора

«Демография и рынок труда»

научно-исследовательского центра

«Научные основы и проблемы экономического

развития Узбекистана» при ТГЭУ,

магистрант 1 курса ТГЭУ

Аннотация. В данной статье проанализированы современные тенденции и перспективы демографического развития мира. В исследовании на основе статистических данных рассмотрены рост численности населения, снижение рождаемости, старение населения, усиление миграционных процессов и региональные демографические диспропорции. Также оценено влияние демографических процессов на социально-экономическое развитие и предложены научно обоснованные рекомендации по их регулированию.

Ключевые слова: демографическое развитие, численность населения, рождаемость, смертность, миграция, старение населения, трудовые ресурсы, демографическая политика, глобальные тенденции

MODERN TRENDS AND PROSPECTS OF GLOBAL DEMOGRAPHIC DEVELOPMENT

Omanova Kamola Botir qizi

Trainee researcher at the Research Center for

"Scientific Foundations and Issues of Uzbekistan's

Economic Development" under TSUE

Saidova Sevara Yormamat qizi

1st year master's degree student at Tashkent

State University of Economics, intern researcher

of "Demography and labor market]" sector of

Scientific research center "Scientific Basis and

Problems of Economic Development of Uzbekistan"

at Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes the modern trends and prospects of global demographic development. The study examines population growth, declining fertility rates, population aging, increasing migration processes, and regional demographic imbalances based on statistical data. In addition, the impact of demographic processes on socio-economic development is assessed, and scientifically grounded recommendations for their regulation are proposed.*

Keywords: *demographic development, population size, fertility, mortality, migration, population aging, labor resources, demographic policy, global trends*

Kirish.

Hozirgi davrda jahon miqyosida demografik jarayonlarning keskin o'zgarishi, xususan, aholi sonining o'sishi, uning yosh tarkibidagi siljishlar, migratsiya oqimlarining jadallashuvi hamda hududlararo demografik tafovutlarning kuchayishi global ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Shu bois demografik rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda tahlil qilish va ularning istiqbollari baholash zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan e'lon qilinayotgan hisobotlarda jahon aholisi sonining barqaror o'sib borayotgani bilan bir qatorda, ushbu o'sishning hududlar kesimida nomutanosib kechayotgani, rivojlangan mamlakatlarda aholi qarishi, rivojlanayotgan hududlarda esa yuqori tabiiy o'sish sur'atlari saqlanib qolayotgani qayd etilmoqda. Bu holat global mehnat bozori, ijtimoiy himoya tizimi va iqtisodiy barqarorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham demografik jarayonlarni tartibga solish, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish hamda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Prezident Farmoni demografik rivojlanish, bandlik va ijtimoiy himoya masalalarini ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berdi [1].

Shuningdek, "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi Prezident Farmoni [2], "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta'minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha

chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori [3], hamda "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlar [4] aholi bandligi va demografik jarayonlarning iqtisodiy jihatlarini tartibga solishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, aholi tarkibida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlar bandligini oshirish, yoshlarni iqtisodiy faollikka jalb etish va migratsiya jarayonlarini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar tizimli ravishda takomillashtirilmoqda [5–7]. Mazkur chora-tadbirlar demografik rivojlanishning sifat jihatlarini yaxshilash, aholi takror barpo bo'lishi jarayonlarini barqarorlashtirish va mehnat resurslarining samarali shakllanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jahon miqyosida kuzatilayotgan demografik tendensiyalarni chuqur tahlil qilish, ularning milliy iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanishga ta'sirini baholash hamda istiqboldagi demografik o'zgarishlarni prognozlash ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — jahon demografik rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini tizimli tahlil qilish, asosiy global ko'rsatkichlar asosida demografik jarayonlarning xususiyatlarini ochib berish hamda ularning istiqbollari ilmiy asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Jahon demografik rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'siri ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, demografiya nazariyasi va aholining takror barpo bo'lishi jarayonlarining umumiy qonuniyatlarini tahlil qilishda D.I. Valentei ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ta'kidlashicha, demografik jarayonlar aholi soni, tarkibi va sifat ko'rsatkichlarining o'zgarishini belgilovchi asosiy omillar majmuasi bo'lib, ular jamiyat rivojlanishining barcha bosqichlarida muhim o'rin tutadi [8]. A. Sovi esa demografik vaziyat tushunchasini kengroq talqin qilib, uni faqat aholi soni bilan cheklanmagan holda, balki ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional jarayonlar bilan uzviy bog'liq kompleks hodisa sifatida qarash lozimligini asoslab bergan [9]. Uning fikriga ko'ra, demografik o'zgarishlar iqtisodiy siyosat va ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishlarini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy demografik tadqiqotlarda aholi rivojlanishining global xususiyatlari va tendensiyalarini tahlil qilishda A.Ya. Kvasha hamda V.A. Borisov ishlari muhim manba hisoblanadi. Jumladan, A.Ya. Kvasha demografik jarayonlarni aholi turmush darajasi, bandlik va ijtimoiy himoya tizimi bilan bog'liq holda tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi [10]. V.A. Borisov esa demografiyani aholi dinamikasi va uning iqtisodiy jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligini o'rganuvchi mustaqil fan sifatida tavsiflaydi [11].

Jahon demografik rivojlanishining zamonaviy bosqichini tahlil qilishda xalqaro tashkilotlar, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Ushbu tashkilotning aholishunoslik bo'limi tomonidan tayyorlangan hisobotlarda jahon aholisi sonining o'sishi, qarish jarayoni, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarining o'zgarishi hamda migratsiya tendensiyalari ilmiy asoslangan holda yoritib berilgan [12]. Ushbu ma'lumotlar global demografik jarayonlarni baholashda ishonchli statistik baza sifatida xizmat qiladi.

Mehnat bozori va demografik jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tadqiq etishda K.X. Abdurahmonovning ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega. Uning tadqiqotlarida aholining takror barpo bo'lishi jarayonlari mehnat resurslarining shakllanishi bilan chambarchas bog'liq ekanligi, demografik omillar mehnat bozoridagi taklif va talabga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan [13].

Shuningdek, zamonaviy iqtisodiy-demografik tadqiqotlarda mehnat bozori va demografik jarayonlarning o'zaro ta'siri D. Gujarati tomonidan ishlab chiqilgan ekonometrik yondashuvlar orqali ham tahlil qilingan. Uning ishlarida demografik ko'rsatkichlarni iqtisodiy modellashtirish va prognozlash usullarining ahamiyati keng yoritilgan [14]. Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, demografik jarayonlar faqat aholi sonining o'zgarishi bilan cheklanmaydi, balki u ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, mehnat bozori, migratsiya va inson kapitali bilan uzviy bog'liq kompleks tizimni tashkil etadi. Shu bilan birga, jahon miqyosida demografik tendensiyalarni chuqur tahlil qilish va ularning istiqbollari baholash masalalari hanuzgacha dolzarb bo'lib qolmoqda hamda ushbu tadqiqotni amalga oshirish zaruratini belgilab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda jahon demografik rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishda statistik tahlil, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida xalqaro tashkilotlar, xususan Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlari asosida demografik ko'rsatkichlar dinamikasi o'rganilib, hududlar kesimida qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, demografik jarayonlarning istiqboldagi rivojlanishini baholashda prognozlash yondashuvlari qo'llanildi.

Tahlil va natijalar.

Jahon miqyosida demografik jarayonlarning zamonaviy holatini baholashda statistik ko'rsatkichlar asosiy tahlil vositasi hisoblanadi. So'nggi yillarda global demografik rivojlanish aholi sonining barqaror o'sishi bilan birga, uning hududlar kesimida notekis taqsimlanishi hamda yosh tarkibidagi sezilarli o'zgarishlar bilan tavsiflanmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda jahon aholisi soni 8 milliard kishidan oshgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2030-yilga borib 8,5 milliardga, 2050-yilda esa 9,7 milliardga yetishi prognoz qilinmoqda. Mazkur o'sish asosan rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelib, global demografik nomutanosiblikni yanada kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, dunyo aholisi yosh tarkibida ham muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, 2015-yilda 60 yoshdan yuqori aholining ulushi 12 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2050-yilga borib ushbu ko'rsatkich 20 foizga yetishi kutilmoqda. Bu esa aholining qarishi jarayonining tezlashayotganini anglatadi va ijtimoiy himoya tizimiga yuklamaning ortishiga olib keladi.

Tug'ilish darajasi bo'yicha ham global miqyosda pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Hozirgi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda umumiy tug'ilish koeffitsiyenti aholining oddiy takror barpo bo'lishi uchun zarur bo'lgan darajadan (2,1 bola) past bo'lib, bu uzoq muddatda aholi sonining qisqarish xavfini yuzaga keltirmoqda. Aksincha, Afrika mintaqasida yuqori tug'ilish darajasi saqlanib qolayotganligi sababli ushbu hududda aholi sonining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etilmoqda.

Demografik rivojlanishning yana bir muhim jihatida xalqaro migratsiya jarayonlarining kengayib borayotganini qayd etish lozim. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda xalqaro migrantlar soni 280 million kishidan oshib, global mehnat bozorining ajralmas qismiga aylangan. Bu esa demografik jarayonlarning iqtisodiy jarayonlar bilan tobora kuchli integratsiyalashayotganini ko'rsatadi.


Yuqoridagi statistik ko'rsatkichlar jahon demografik rivojlanishining murakkab va ko'p omilli xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Xususan, demografik jarayonlar hududlar kesimida keskin farqlanib, ayrim mintaqalarda aholi sonining jadal o'sishi kuzatilayotgan bo'lsa, boshqa hududlarda demografik qisqarish va qarish jarayonlari ustunlik qilmoqda. Bu esa global miqyosda mehnat resurslari taqsimoti, iqtisodiy faollik darajasi hamda ijtimoiy yuklama o'rtasidagi nomutanosiblikni kuchaytiradi. Natijada, demografik o'zgarishlar nafaqat aholi tarkibiga, balki iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur holatni yanada chuqurroq anglash maqsadida jahon demografik rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini tizimli ravishda tahlil qilish zarur hisoblanadi. Shu bois, quyida global demografik jarayonlarni ifodalovchi eng muhim 10 ta omil vizual va analitik shaklda keltirilib, ularning hududiy xususiyatlari hamda istiqboldagi rivojlanish tendensiyalari yoritib beriladi. Ushbu yondashuv demografik jarayonlarning umumiy qonuniyatlarini aniqlash, shuningdek, ularning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini baholash imkonini beradi (1-rasm).

Keltirilgan strategik-demografik xarita jahon miqyosida kechayotgan demografik jarayonlarning murakkab va ko'p qirrali ekanligini yaqqol namoyon etadi. Unda aks ettirilgan asosiy tendensiyalar — aholi sonining o'sishi, tug'ilish darajasining pasayishi, aholining qarishi hamda migratsiya oqimlarining kuchayishi — global demografik tizimda bir vaqtning o'zida qarama-qarshi yo'nalishdagi jarayonlar kechayotganini ko'rsatadi. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda past tug'ilish va yuqori umr ko'rish davomiyligi natijasida aholining qarishi jadallashib borayotgan bo'lsa, rivojlanayotgan hududlarda, ayniqsa Afrika mintaqasida yuqori tug'ilish darajasi hisobiga aholi sonining tez sur'atlarda ortishi kuzatilmoqda. Bu esa jahon aholisining hududiy taqsimotida keskin nomutanosibliklarni yuzaga keltirmoqda.

Infografik materialda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, demografik o'zgarishlar nafaqat aholi soni va tarkibiga, balki iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Aholining qarishi rivojlangan davlatlarda mehnat resurslari qisqarishiga va ijtimoiy himoya tizimiga tushadigan yuklamaning ortishiga olib kelayotgan bo'lsa, yuqori demografik o'sish kuzatilayotgan mamlakatlarda esa bandlikni ta'minlash, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlariga bo'lgan talab keskin oshmoqda. Natijada, turli hududlarda demografik muammolarning mazmuni va xarakteri tubdan farqlanmoqda. Shu bilan birga,

xaritada aks ettirilgan migratsiya jarayonlari global demografik muvozanatni qisman tartibga soluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.



1-rasm. Jahon demografik rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari.

Manba: Statistik raqamlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mehnat resurslari yetishmayotgan hududlarga aholining ko'chib o'tishi iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlasa-da, bu jarayon ayrim hollarda ijtimoiy infratuzilma va integratsiya muammolarini keltirib chiqarmoqda. Urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi esa shaharlar rivojlanishini tezlashtirgan holda, infratuzilmaga tushadigan bosimni ham oshirmoqda. Umuman olganda, keltirilgan tahlil natijalari jahon demografik rivojlanishining yagona yo'nalishda emas, balki hududiy xususiyatlarga bog'liq holda turlicha kechayotganini ko'rsatadi. Bu esa demografik siyosatni ishlab chiqishda universal yondashuv emas, balki differensial, hududiy xususiyatlarni inobatga olgan strategiyalarni qo'llash zarurligini asoslaydi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jahon demografik rivojlanishi hozirgi bosqichda murakkab va ko'p yo'nalishli jarayon sifatida shakllanmoqda. Aholi sonining global miqyosda o'sib borishi bilan birga, uning hududlar kesimidagi nomutanosib taqsimlanishi, tug'ilish darajasining pasayishi va aholining qarishi kabi tendensiyalar bir vaqtning o'zida kuzatilmoqda. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda demografik qarish va tabiiy kamayish jarayonlari kuchayib borayotgan bo'lsa, rivojlanayotgan hududlarda, xususan Afrika mintaqasida yuqori demografik o'sish sur'atlari saqlanib qolmoqda. Shuningdek, demografik jarayonlarning iqtisodiy tizimlar bilan o'zaro bog'liqligi yanada kuchayib borayotganligi aniqlandi. Aholining yosh tarkibidagi o'zgarishlar mehnat resurslari shakllanishiga, bandlik darajasiga va ijtimoiy himoya tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Migratsiya jarayonlarining kengayishi esa global mehnat bozori shakllanishining muhim omiliga aylanib, hududlar o'rtasida mehnat resurslari taqsimotini qayta shakllantirmoqda.

Tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- demografik siyosatni ishlab chiqishda hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda differensial yondashuvni qo'llash zarur;
- aholining takror barpo bo'lish jarayonlarini barqarorlashtirish maqsadida tug'ilish darajasini rag'batlantiruvchi va oilani qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni takomillashtirish lozim;
- aholining qarishi bilan bog'liq muammolarni yumshatish uchun pensiya tizimi va sog'liqni saqlash xizmatlarini modernizatsiya qilish talab etiladi;
- mehnat resurslaridan samarali foydalanish maqsadida migratsiya jarayonlarini tartibga solish va boshqarish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi;

- inson kapitalini rivojlantirish, xususan ta'lim va kasbiy tayyorgarlik tizimini kuchaytirish orqali demografik o'zgarishlarning salbiy oqibatlarini kamaytirish zarur.

Umuman olganda, jahon demografik rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini chuqur tahlil qilish va ularni hisobga olgan holda kompleks siyosiy hamda iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, PF-60, 28.01.2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, PF-143, 23.09.2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, PQ-64, 14.02.2025.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, PQ-12, 17.01.2025.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlar bandligini oshirish va ularni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, PQ-376, 21.09.2022.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijga mehnat migratsiyasini tartibga solish va fuqarolarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, PQ-149, 01.03.2022.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2021-yil.
8. Valentei D.I. Demografiya: nazariya va amaliyot. – M.: Vysshaya shkola, 1997.
9. Sauvy A. General Theory of Population. – New York: Basic Books, 1976.
10. Kvasha A.Ya., Iontsev V.A. Sovremennaya demografiya. – M.: INFRA-M, 2005.
11. Borisov V.A. Demografiya. – M.: NOTA BENE, 2001.
12. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. World Population Prospects 2022. – New York, 2022.
13. Abdurahmonov K.X. Mehnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyot). – Toshkent: Fan, 2019.
14. Gujarati D.N. Econometrics by Example. – New York: Palgrave Macmillan, 2011.

ЎЗБЕКИСТОНДА ДЕМОГРАФИК ТЕНДЕНЦИЯЛАР ЎЗГАРИШИ

Қиличов Улуғбек Рустам ўғли

Тошкент давлат иқтисодиёт университети ҳузуридаги
“Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг
илмий асослари ва муаммолари” илмий-тадқиқот маркази
“Демография ва меҳнат бозори” сектори стажёр-тадқиқотчиси
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
магистратура талабаси
ORCID: 0009-0008-3508-1281

Аннотация. Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикасида 2024–2025 йилларда кузатилган демографик тенденциялар ва уларнинг ижтимоий-иқтисодий омиллар билан ўзаро боғлиқлиги таҳлил қилинган. Тадқиқотда аҳоли сони, туғилиш, ўлим, табиий ўсиш, никоҳ ва ажралишлар, шунингдек, ташқи ва ички миграция кўрсаткичларидаги ўзгаришлар расмий статистик маълумотлар асосида баҳоланган. Таҳлил натижалари аҳоли сони ўсиши сақланиб қолаётган бўлса-да, туғилиш даражасининг пасайиши, ўлим ҳолатларининг маълум даражада ортиши ҳамда миграция сальдосининг манфийлиги демографик жараёнларда янги тенденциялар шаклланаётганини кўрсатади. Шу билан бирга, аҳоли даромадлари, иш ҳақи, иқтисодий фаоллик ва тадбиркорлик ривожланишининг демографик жараёнларга таъсири ўрганилган. Тадқиқот натижалари демографик сиёсатни такомиллаштириш, аҳоли фаровонлигини ошириш ва ҳудудий демографик номутаносибликларни камайтириш бўйича илмий асосланган таклиф ва тавсияларни ишлаб чиқиш учун муҳим назарий ҳамда амалий аҳамиятга эга.

Калит сўзлар: демографик тенденциялар, аҳоли сони, туғилиш даражаси, ўлим кўрсаткичи, табиий ўсиш, миграция, никоҳ ва ажралиш, аҳоли даромадлари, меҳнат бозори, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш, демографик сиёсат, Ўзбекистон.

ИЗМЕНЕНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ТЕНДЕНЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Киличову Улугбеку Рустам угли

Стажер-исследователь сектора "Демография и рынок труда"

научно-исследовательского центра

"Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана" при

Ташкентском государственном экономическом университете

Студент магистратуры ташкентского государственного

экономического университета

Аннотация. В данной статье анализируются демографические тенденции, наблюдаемые в Республике Узбекистан в 2024–2025 годах, и их взаимосвязь с социально-экономическими факторами. В исследовании изменения в показателях численности населения, рождаемости, смертности, естественного прироста, браков и разводов, а также внешней и внутренней миграции оценивались на основе официальных статистических данных. Результаты анализа показывают, что несмотря на сохранение роста населения, снижение рождаемости, определенное увеличение смертности и отрицательное сальдо миграции свидетельствуют о формировании новых тенденций в демографических процессах. При этом изучено влияние доходов населения, заработной платы, экономической активности и развития предпринимательства на демографические процессы. Результаты исследования имеют важное теоретическое и практическое значение для разработки научно обоснованных предложений и рекомендаций по совершенствованию демографической политики, повышению благосостояния населения и снижению территориальных демографических диспропорций.

Ключевые слова: демографические тенденции, численность населения, уровень рождаемости, смертность, естественный прирост, миграция, браки и разводы, доходы населения, рынок труда, социально-экономическое развитие, демографическая политика, Узбекистан.

CHANGES IN DEMOGRAPHIC TRENDS IN UZBEKISTAN

Kilichov Ulugbek Rustam ugli

Intern-researcher of the "Demography and labor market"

Sector of the research center

"Scientific foundations and problems of economic development of Uzbekistan" at

Tashkent state university of economics

Master's student of Tashkent state university of economics

Abstract. *This article analyzes the demographic trends observed in the Republic of Uzbekistan in 2024–2025 and their correlation with socio-economic factors. The study evaluated changes in population size, births, deaths, natural increase, marriages and divorces, as well as external and internal migration indicators based on official statistical data. The results of the analysis show that although population growth persists, a decrease in the birth rate, a certain increase in mortality, and a negative migration balance indicate the formation of new trends in demographic processes. At the same time, the impact of population income, wages, economic activity, and entrepreneurship development on demographic processes was studied. The research results are of great theoretical and practical importance for developing scientifically grounded proposals and recommendations for improving demographic policy, increasing public welfare, and reducing regional demographic disparities.*

Keywords: *demographic trends, population size, birth rate, mortality rate, natural increase, migration, marriage and divorce, population income, labor market, socio-economic development, demographic policy, Uzbekistan.*

Kirish.

Ҳозирги босқичда Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнларни чуқур ўрганиш ва таҳлил қилиш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Аҳолининг сони, таркиби, табиий ўсиши ва миграция жараёнларидаги ўзгаришлар мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишига бевосита таъсир кўрсатади. Шу боис демографик тенденцияларни йиллар кесимида таҳлил қилиш ва улардаги

ўзгаришларни аниқлаш илмий ва амалий аҳамият касб этади. Сўнгги йилларда мамлакатда аҳоли турмуш даражасини ошириш, бандликни Рўёбга чиқариш, ижтимоий муҳофаза тизимини такомиллаштириш ҳамда инсон капиталини ривожлантиришга қаратилган кенг кўламли ислохотлар амалга оширилмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг аҳоли даромадларини ошириш, меҳнат бозорини ривожлантириш ва ижтимоий ҳимояни кучайтиришга қаратилган қарор ва фармонлари демографик жараёнларга сезиларли таъсир кўрсатмоқда[1]. Жумладан, аҳоли даромадларини изчил ошириш ва ижтимоий қўллаб-қувватлаш чоратадбирлари доирасида 2025 йилда иш ҳақи, пенсия ва нафақалар миқдорининг оширилиши аҳолининг турмуш даражасига ижобий таъсир кўрсатди ҳамда демографик хулқ-атвор (туғилиш, никоҳ, миграция)га билвосита таъсир этувчи омил сифатида намоён бўлди. Шу билан бирга, мамлакатда демографик жараёнларни статистик баҳолаш ва таҳлил қилиш Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси томонидан шакллантирилаётган расмий маълумотлар асосида амалга оширилади. Ушбу маълумотлар аҳолининг такрор барпо бўлиши жараёнларини комплекс баҳолаш имконини беради.

Мазкур таҳлил ишининг долзарблиги шундаки, 2024–2025 йиллар давомида демографик кўрсаткичларда юз берган ўзгаришларни аниқлаш орқали аҳолининг такрор барпо бўлишига таъсир этувчи асосий омилларни белгилаш ва уларнинг тенденцияларини илмий жиҳатдан асослаш имконияти яратилади. Ушбу ишнинг мақсади — 2024 ва 2025 йиллар расмий статистик маълумотлари асосида Ўзбекистонда демографик тенденциялар ўзгаришини таҳлил қилиш ва уларнинг асосий йўналишларини аниқлашдан иборат.

Адабиётлар шарҳи.

Демографик жараёнлар мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини белгилаб берувчи муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Аҳоли сонининг ўсиши, ёш-жинс таркиби, туғилиш ва ўлим даражалари, шунингдек миграция жараёнлари меҳнат бозори, инсон капитали ва иқтисодий ўсишга бевосита таъсир кўрсатади. Шу сабабли демографик ривожланиш масалалари халқаро ва миллий илмий адабиётларда кенг ўрганилади.

Замонавий демографик тадқиқотларда аҳоли такрор барпо бўлиши жараёнлари иқтисодий ривожланиш билан узвий боғлиқ ҳолда таҳлил қилинади. Хусусан, демографик ўтиш назариясига кўра, мамлакат иқтисодий тараққиётнинг юқори босқичларига кўтарилган сари туғилиш ва ўлим кўрсаткичларида сезиларли ўзгаришлар юз беради. Натижада аҳоли ўсиши суръатлари пасаяди ва демографик таркиб сифат жиҳатдан ўзгаради. Ушбу ёндашув аҳоли ўсиши билан иқтисодий ривожланиш ўртасидаги боғлиқликни тушунтиришда муҳим назарий асос бўлиб хизмат қилади[14].

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда демографик ривожланиш масалаларига бағишланган тадқиқотлар сони ортиб бормоқда. Жумладан, М. Қурбонова томонидан амалга оширилган тадқиқотда Ўзбекистонда демографик жараёнлар эволюцияси ижтимоий-фалсафий нуқтаи назардан таҳлил қилиниб, аҳоли ўсиши, урбанизация ва меҳнат миграцияси мамлакат ижтимоий тараққиётининг муҳим омиллари сифатида баҳоланган[15]. Муаллиф аҳоли сонининг ортиши иқтисодий имкониятлар кенгайиши учун муҳим ресурс ҳисобланиши билан бирга, таълим, соғлиқни сақлаш ва меҳнат бозори тизимларига қўшимча талаблар юклаши мумкинлигини таъкидлайди.

Ўзбекистонда демографик жараёнларнинг хусусиятлари Ш.Ю. Салимов томонидан ҳам ўрганилган бўлиб, тадқиқотда аҳоли табиий ўсиши, меҳнат ресурсларининг шаклланиши ва ҳудудий демографик тафовутлар таҳлил қилинган[16]. Олимнинг фикрича, республика аҳолиси сонининг барқарор ўсиши меҳнат бозорининг кенгайишига хизмат қилса-да, янги иш ўринлари яратиш ва инсон капиталини ривожлантириш бўйича тизимли чора-тадбирларни талаб этади.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистондаги демографик ўзгаришлар М. Саидмуродова томонидан ҳам таҳлил қилинган. Муаллифнинг фикрича, аҳоли сонининг ўсиши, урбанизация жараёнларининг жадаллашуви ва ички миграция оқимларининг кучайиши мамлакат ижтимоий-иқтисодий тараққиётига сезиларли таъсир кўрсатган[17]. Тадқиқотда демографик сиёсатнинг иқтисодий ислохотлар билан мувофиқлаштирилиши аҳоли фаровонлигини оширишнинг муҳим шарти сифатида баҳоланади.

Мавжуд илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, Ўзбекистонда демографик жараёнларнинг алоҳида жиҳатлари — аҳоли ўсиши, миграция, меҳнат ресурслари ва урбанизация масалалари кенг ўрганилган. Бироқ

аксарият тадқиқотларда демографик тенденциялар ҳамда аҳоли даромадлари, иш ҳақи динамикаси, иқтисодий фаоллик ва тадбиркорлик кўрсаткичлари ўртасидаги ўзаро боғлиқлик комплекс тарзда таҳлил қилинмаган. Шу нуқтаи назардан мазкур тадқиқотнинг илмий аҳамияти 2024–2025 йилларда Ўзбекистонда кузатилган демографик ўзгаришларни ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичлар билан боғлиқ ҳолда баҳолаш ва уларнинг ўзаро таъсир механизмларини аниқлашдан иборат.

Тадқиқот методологияси.

Мазкур тадқиқотда Ўзбекистонда 2024–2025 йилларда кузатилган демографик тенденциялар ва уларга таъсир этувчи ижтимоий-иқтисодий омилларни ўрганишда комплекс ёндашув қўлланилди. Тадқиқот жараёнида таҳлил, таққослаш, статистик гуруҳлаш, динамик қаторлар таҳлили ва илмий абстракция усулларида фойдаланилди. Шунингдек, аҳоли сони, туғилиш, ўлим, миграция, аҳоли даромадлари ва иш ҳақи кўрсаткичлари ўртасидаги ўзаро боғлиқликни аниқлашда тизимли таҳлил усули қўлланилди. Тадқиқотнинг ахборот базасини Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитасининг расмий статистик маълумотлари ташкил этди.

Таҳлил ва натижалар.

2025 йил якуний маълумотларига кўра, Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар барқарор ижобий динамикани сақлаб қолган бўлса-да, айрим кўрсаткичларда сифат жиҳатидан ўзгаришлар кузатилмоқда. Жумладан, аҳоли сони ўсиши давом этган, аммо табиий ўсиш суръатларига таъсир этувчи омилларда муайян трансформациялар юз берган.

2026 йил 1 январь ҳолатига республика доимий аҳолиси сони 38 236,7 минг кишини ташкил этиб, 2025 йилнинг мос даврига нисбатан 693,5 минг кишига ёки 1,8 фоизга ошган[13]. Бу ҳолат 2024 йилга нисбатан ҳам аҳоли ўсиши барқарор давом этаётганини кўрсатади. Шу билан бирга, аҳоли зичлиги 1 кв.км га 85,2 кишига етгани (2025 йилда 83,6 киши) демографик босимнинг ортиб бораётганидан далолат беради[13].

Туғилиш кўрсаткичларида эса пасайиш тенденцияси кузатилди. 2025 йилда 879,6 минг нафар тирик туғилиш қайд этилган бўлиб, бу 2024 йилга нисбатан 46,8 минг нафарга камдир[13]. Мазкур ҳолат туғилиш интенсивлигининг пасайишини, айниқса репродуктив хулқ-атворда

ўзгаришлар юз бераётганини кўрсатади. Туғилиш коэффициентининг 23,2 промилле даражасида шаклланиши ҳам ушбу тенденцияни тасдиқлайди.

Аксинча, ўлим кўрсаткичида маълум даражада ўсиш қайд этилди. 2025 йилда вафот этганлар сони 177,1 минг нафарни ташкил этиб, 2024 йилга нисбатан 2,7 минг нафарга кўпайган[13]. Бу эса аҳолининг ёш таркибида қариш жараёнлари бошланаётгани ёки тиббий-ижтимоий омиллар таъсирида ўлим даражасида сезиларли ўзгаришлар мавжудлигини кўрсатиши мумкин.

Юқоридаги жараёнлар натижасида табиий ўсиш 702,5 минг кишини ташкил этган. Бир қарашда бу юқори кўрсаткич бўлса-да, туғилишнинг камайиши ва ўлимнинг ортиши ҳисобига унинг ўсиш суръати секинлашиши эҳтимоли мавжуд.

Никоҳ ва ажралиш жараёнларида ҳам муҳим ўзгаришлар кузатилди. 2025 йилда қайд этилган никоҳлар сони 267,1 минг бирликни ташкил этиб, 2024 йилга нисбатан 4,7 мингтага камайган[13]. Бу ҳолат ёшлар орасида никоҳга кириш тенденциясининг пасайиб бораётганини ёки никоҳ ёшининг кечикаётганини англатиши мумкин. Шу билан бирга, никоҳдан ажралишлар сони 46,9 минг бирликни ташкил этиб, 1,8 мингтага ошган[13]. Бу эса оила институти барқарорлигига таъсир қилувчи ижтимоий омилларнинг кучайиб бораётганини кўрсатади.

Миграция жараёнлари таҳлили ҳам муҳим демографик тенденцияларни очиб беради. 2025 йилда хориждан кўчиб келганлар сони атиги 1 159 кишини ташкил этган бўлса, хорижга кўчиб кетганлар сони 10 117 кишига етган[13]. Бу ҳолат ташқи миграция сальдосининг манфийлигини кўрсатиб, аҳоли сони ўсиши асосан табиий ўсиш ҳисобига таъминланаётганини англатади. Шу билан бирга, ички миграция ҳажмининг юқорилиги (251 мингдан ортиқ) мамлакат ичида ҳудудий қайта тақсимланиш жараёнлари фаол кечаётганини кўрсатади.

Ҳудудий жиҳатдан таҳлил қилинганда, аҳоли ўсиши ва табиий ўсишнинг асосий қисми Самарқанд, Қашқадарё, Фарғона ва Сурхондарё вилоятлари ҳиссасига тўғри келмоқда[13]. Бу ҳудудларда демографик фаоллик юқори эканлигини кўрсатади. Аксинча, Сирдарё ва Навоий вилоятларида кўрсаткичлар нисбатан паст даражада сақланиб қолмоқда.

1-жадвал.

Демографик кўрсаткичлар таққослама жадвали (2024–2025)

Кўрсаткич	2024 йил	2025 йил	Ўзгариш
Аҳоли сони, минг	37 500,0	38 236,7	+736,7 (+1,8%)
Туғилганлар, минг	926,4	879,6	-46,8
Ўлим, минг	174,4	177,1	+2,7
Табиий ўсиш, минг	~752	702,5	-49,5
Мамлакатга келганлар, нафар	~1 500	1 159	-341
Мамлакатдан кетганлар, нафар	~9 000	10 117	+1 117
Миграция сальдоси, нафар	-7 500	-8 958	-1 458
Қайд этилган никоҳлар, минг	283	267,1	-15,9
Ажралишлар, минг	45,1	46,9	-1,1

Манба: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси, «Демографик кўрсаткичлар: 2024–2025 йиллар», расмий маълумотлар.

2024–2025 йиллар кесимида Ўзбекистон Республикасининг демографик кўрсаткичлари таҳлили шуни кўрсатадики, аҳоли сони барқарор ўсиш тенденциясини сақлаб қолган. Жумладан, доимий аҳоли сони 693,5 минг кишига ёки 1,8 фоизга ошгани демографик ўсишнинг асосан табиий омиллар ҳисобига таъминланаётганини англатади.

Бироқ туғилиш кўрсаткичларида сезиларли пасайиш кузатилиб, 2025 йилда туғилганлар сони 46,8 минг нафарга камайган. Бу эса табиий ўсиш суръатининг пасайишига олиб келган (-49,5 минг киши). Шу билан бирга, вафот этганлар сонининг 2,7 минг нафарга ошгани демографик юклама ортиб бораётганини кўрсатади.

Никоҳ ва ажралиш кўрсаткичларида ҳам қарама-қарши тенденция кузатилади: никоҳлар сони камайган бўлса (-4,7 минг), ажралишлар сони ошган (+1,8 минг). Бу ҳолат оила институтида муайян ижтимоий ўзгаришлар мавжудлигини англатади.

Умуман олганда, таҳлил натижаларига кўра, 2025 йилда демографик ўсиш сақланиб қолган бўлса-да, унинг сифат жиҳатдан секинлашуви, хусусан туғилишнинг камайиши ва ажралишларнинг ортиши каби тенденциялар кузатилмоқда.

2024–2025 йилларда Ўзбекистонда демографик жараёнлар динамикаси ижтимоий-иқтисодий омиллар таъсирида шаклланиб, аҳолининг такрор барпо бўлишига доир кўрсаткичларда муайян

ўзгаришлар кузатилди. Ушбу жараёнларни баҳолашда аҳоли даромадлари, иш ҳақи, иқтисодий фаоллик ва тадбиркорлик ривожига омиллар муҳим аҳамият касб этади. Аввало, аҳоли даромадларидаги ўсиш демографик жараёнларнинг асосий драйверларидан бири сифатида намоён бўлди. 2025 йилда аҳолининг умумий даромадлари 1 134,3 трлн сўмни ташкил этган бўлиб, номинал ўсиш суръати 118,9 фоиз, реал ўсиш эса 109,2 фоизга тенг бўлди. Аҳоли жон бошига даромадлар 29,9 млн сўмга етгани аҳоли фаровонлиги ошганини кўрсатади[3]. Бу ҳолат туғилиш даражасига ижобий таъсир этувчи иқтисодий муҳит шаклланаётганини англатади. Шу билан бирга, даромадлар таркибида меҳнат фаолиятдан олинган даромадлар устувор ўрин эгаллаб, 60,4 фоизни ташкил этди[3]. Мазкур ҳолат аҳолининг иқтисодий фаоллиги ортиб бораётганини кўрсатади. Бандлик даражасининг ўсиши, ўз навбатида, аҳоли репродуктив хулқ-атворида таъсир кўрсатиб, oilаларнинг иқтисодий барқарорлиги орқали демографик жараёнларга таъсир этади.

2025 йилда ўртача ойлик номинал иш ҳақи 6 376,7 минг сўмни ташкил этиб, ўтган йилга нисбатан 18,9 фоизга ошган[4]. Иш ҳақининг ўсиши аҳолининг истеъмол имкониятларини кенгайтириб, ижтимоий барқарорликни мустаҳкамлайди. Айниқса, таълим (120,1 %) ва санъат соҳаларида (126,4 %) юқори ўсиш суръатлари кузатилгани инсон капитали ривожига ижобий таъсир кўрсатувчи омил сифатида баҳоланади. Худудлар кесимида таҳлил қилинганда, даромадлар ва иш ҳақидаги фарқлар сақланиб қолмоқда. Масалан, Тошкент шаҳрида аҳоли жон бошига даромадлар 73,9 млн сўмни ташкил этган бўлса, айрим вилоятларда бу кўрсаткич анча паст даражада қолмоқда[4]. Бу эса ички миграция жараёнларини рағбатлантирувчи омил сифатида намоён бўлиб, аҳолининг ҳудудий жойлашувида ўзгаришларга олиб келади.

Иқтисодий фаолликнинг яна бир муҳим кўрсаткичи сифатида корхона ва ташкилотлар сони таҳлил қилинганда, 2026 йил бошига келиб уларнинг сони 474,9 мингтани ташкил этган. Бироқ 2025 йилда бу кўрсаткич 424,8 мингга бўлиб, 2024 йилга нисбатан қисқариш кузатилган[5]. Бу ҳолат айрим иқтисодий қайта тузилиш жараёнлари кечаётганини кўрсатади ва меҳнат бозорига ҳам таъсир қилиши мумкин. Шу билан бирга, кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектларининг улуши

юқори даражада сақланиб қолмоқда. Аҳоли даромадларида кичик тадбиркорликдан олинган даромадлар улушининг 58,0 фоизни ташкил этиши иқтисодий фаолликнинг муҳим манбаи сифатида намоён бўлади[12]. Бу ҳолат аҳолининг ўзини ўзи банд қилиш имкониятлари кенгайганини англатади ва демографик барқарорликка ижобий таъсир кўрсатади. Демографик жараёнларга ташқи омиллардан бири сифатида миграция билан боғлиқ пул ўтказмалари ҳам таъсир кўрсатмоқда. 2025 йилда республика ташқарисидан келиб тушган пул ўтказмалари улуши 21,0 фоизни ташкил этган. Бу кўрсаткич меҳнат миграциясининг аҳамияти юқори эканлигини ва аҳоли даромадларида унинг ўрни катта эканини кўрсатади[11].

Юқоридаги омилларни умумлаштириб айтиш мумкинки, 2025 йилда демографик тенденциялар иқтисодий ўсиш, аҳоли даромадлари ва меҳнат бозоридаги ўзгаришлар таъсирида шакллланган. 2024 йилга нисбатан аҳоли фаровонлиги ошгани, иш ҳақи ва даромадлар ўсгани демографик жараёнларда нисбатан барқарор ва ижобий тенденциялар шаклланаётганини кўрсатади. Шу билан бирга, ҳудудий фарқлар ва иқтисодий қайта тузилиш жараёнлари демографик ривожланишда мураккаб ва кўп қиррали жараёнлар сақланиб қолаётганини кўрсатади. 2024–2025 йилларда Ўзбекистонда демографик жараёнлар динамикаси иқтисодий ва ижтимоий кўрсаткичлардаги ўзгаришлар билан узвий боғлиқ ҳолда шаклланди. Аҳолининг такрор барпо бўлишига таъсир этувчи омиллар қаторида даромадлар даражаси, иш ҳақи, иқтисодий фаоллик, тадбиркорлик ривожини ва миграция жараёнлари муҳим ўрин тутди[13].

Таҳлил қилинаётган даврда аҳоли даромадлари ва иш ҳақининг ўсиши, кичик бизнес фаоллигининг кенгайиши ҳамда ташқи иқтисодий омиллар таъсири демографик жараёнларнинг йўналишига сезиларли таъсир кўрсатди. Шу билан бирга, ҳудудлар ўртасидаги иқтисодий фарқлар ва меҳнат бозоридаги ўзгаришлар аҳоли жойлашуви ва миграция ҳаракатларида муайян силжишларни юзага келтирди. Мазкур жараёнларни комплекс баҳолаш мақсадида 2024 ва 2025 йилларга оид асосий ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичлар ўзаро таққосланиб, уларнинг демографик тенденцияларга таъсири қуйидаги жадвалда акс эттирилди[2].

2-жадвал.

2024–2025 йиллар демографик ва ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичлар таққосламаси[2]

Кўрсаткич	2024 йил	2025 йил	Ўзгариш (%)	Таҳлил йўналиши
Аҳоли умумий даромадлари (трлн сўм)	~954,0	1 134,3	+18,9 %	Даромад ўсиши
Жон бошига даромад (млн сўм)	~25,6	29,9	+16,6 %	Турмуш даражаси
Реал даромад ўсиши	—	109,2 %	+9,2 %	Реал фаровонлик
Ўртача иш ҳақи (минг сўм)	~5 363	6 376,7	+18,9 %	Бандлик ва меҳнат бозори
Меҳнат даромадлари улуши	~59–60 %	60,4 %	↑	Иқтисодий фаоллик
Кичик бизнес улуши	~56 %	58,0 %	↑	Тадбиркорлик
Пул ўтказмалари улуши	~19–20 %	21,0 %	↑	Миграция таъсири
Корхоналар сони (минг)	485,0	424,8	↓	Иқтисодий қайта тузилиш

Изоҳ: 2024 айрим кўрсаткичлар ўсиш суръатларидан келиб чиқиб ҳисобий аниқланган.

Жадвал маълумотлари таҳлили шуни кўрсатадики, 2024–2025 йилларда Ўзбекистонда демографик жараёнлар иқтисодий ўсиш ва аҳоли даромадларининг ортиши билан узвий боғлиқ ҳолда шаклланган. Айниқса, аҳоли умумий даромадлари ва ўртача иш ҳақининг юқори суръатларда ўсиши аҳоли турмуш даражасида ижобий силжишлар юз берганини англатади. Аҳоли жон бошига даромадларнинг ўсиши иқтисодий барқарорликни мустаҳкамлаб, oilаларнинг молиявий имкониятларини кенгайтирган. Бу ҳолат демографик хулқ-атворга, жумладан, туғилиш ва никоҳ жараёнларига билвосита таъсир кўрсатувчи омил сифатида намоён бўлади. Шу нуқтаи назардан, 2025 йилда кузатилган иқтисодий ижобий динамика аҳолининг такрор барпо бўлиши жараёнларида барқарорликни кучайтирувчи тенденция сифатида баҳоланади.

Шу билан бирга, даромадлар таркибида меҳнат фаолиятидан олинган даромадлар улушининг юқорилиги аҳолининг иқтисодий фаоллиги ортиб бораётганини кўрсатади. Кичик тадбиркорлик улушининг ошиши эса аҳолининг ўзини ўзи банд қилиш имкониятлари кенгайтганини англатади[12]. Бу жараёнлар ижтимоий барқарорликни шакллантириб, демографик хавфларни чеклашга хизмат қилади. Бироқ, таҳлил натижалари барча жараёнлар бир хил йўналишда кечмаётганини ҳам кўрсатади. Жумладан, ҳудудлар ўртасидаги даромадлар тафовути сақланиб

қолмоқда. Бу эса ички миграция оқимларини кучайтирувчи омил сифатида намоён бўлиб, аҳолининг ҳудудий жойлашувида номутаносибликларни келтириб чиқаради. Айниқса, иқтисодий имкониятлар юқори бўлган ҳудудларга аҳоли оқими ортиши шаҳарлашув жараёнларини тезлаштиради.

Шунингдек, ташқи меҳнат миграцияси билан боғлиқ пул ўтказмалари улушининг ортиши аҳоли даромадларида ташқи омилларнинг роли юқори эканини кўрсатади[11]. Бу ҳолат бир томондан аҳоли фаровонлигига ижобий таъсир кўрсатса, иккинчи томондан демографик жараёнларда, хусусан, меҳнат ёшидаги аҳоли таркибида муайян ўзгаришларга сабаб бўлади. Корхона ва ташкилотлар сонидagi қисқариш эса иқтисодий тизимдаги трансформация жараёнларини акс эттиради. Бу ҳолат қисқа муддатда меҳнат бозорига босим ўтказиши мумкин, бироқ узоқ муддатли истиқболда самарадорликнинг ошишига хизмат қилади. Умуман олганда, 2024–2025 йилларда демографик тенденциялар иқтисодий ўсиш, аҳоли даромадлари динамикаси ва меҳнат бозоридagi ўзгаришлар таъсирида шаклланиб, ижобий йўналишда ривожланаётгани кузатилади. Шу билан бирга, ҳудудий номутаносибликлар ва миграция жараёнлари мазкур тенденцияларнинг мураккаб характерга эга эканлигини кўрсатади.

2024–2025 йиллар давомида Ўзбекистонда демографик жараёнлар ижтимоий-иқтисодий омиллар таъсирида шаклланиб, аҳолининг такрор барпо бўлишида нисбатан барқарор ва ижобий тенденциялар кузатилди. Таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, аҳоли даромадлари, иш ҳақи ва иқтисодий фаоллик кўрсаткичларининг ўсиши демографик жараёнларнинг йўналишига бевосита таъсир кўрсатган. Жумладан, аҳоли умумий даромадлари ва жон бошига тўғри келадиган даромадлар ўсиши аҳоли фаровонлигининг ошганини кўрсатди. Бу ҳолат оилаларнинг иқтисодий имкониятларини кенгайтириб, демографик хулқ-атворга, хусусан, туғилиш ва никоҳ жараёнларига билвосита таъсир этувчи омил сифатида намоён бўлди. Шу билан бирга, ўртача иш ҳақининг барқарор ўсиши меҳнат бозоридa ижобий динамикани акс эттириб, аҳолининг ижтимоий-иқтисодий фаоллигини оширди.

Таҳлил жараёнида аҳоли даромадлари таркибида меҳнат фаолиятдан олинган даромадлар устувор ўрин эгаллаётгани, кичик тадбиркорлик улушининг ортиб бораётгани аниқланди. Бу эса аҳолининг иқтисодий фаоллиги кенгайиб бораётганини ва ўзини ўзи банд қилиш имкониятлари ортиб бораётганини кўрсатади. Мазкур жараёнлар

демографик барқарорликни қўллаб-қувватловчи муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Шу билан бирга, ҳудудлар ўртасидаги иқтисодий фарқлар сақланиб қолмоқда. Даромадлар ва иш ҳақидаги тафовутлар ички миграция жараёнларини кучайтириб, аҳолининг ҳудудий жойлашувида номутаносибликларни келтириб чиқармоқда. Бу эса шаҳарлашув жараёнларининг жадаллашишига ва айрим ҳудудларда демографик юкламанинг ортишига сабаб бўлмоқда. Ташқи меҳнат миграцияси билан боғлиқ пул ўтказмалари улушининг юқорилиги ҳам демографик жараёнларга сезиларли таъсир кўрсатмоқда. Бир томондан, бу аҳоли даромадларини оширишга хизмат қилса, иккинчи томондан меҳнат ёшидаги аҳоли таркибида муайян ўзгаришларни келтириб чиқаради.

Умуман олганда, 2024–2025 йилларда Ўзбекистонда демографик тенденциялар иқтисодий ўсиш ва аҳоли фаровонлиги ошиши фонида ижобий йўналишда ривожланган. Бироқ мазкур жараёнлар ҳудудий номутаносибликлар ва миграция омиллари таъсирида мураккаб характер касб этмоқда.

Хулоса ва таклифлар.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, 2024–2025 йилларда Ўзбекистонда демографик ривожланишнинг ижобий тенденциялари сақланиб қолган бўлса-да, айрим демографик кўрсаткичларда сифат жиҳатидан ўзгаришлар кузатилмоқда. Жумладан, аҳоли сони ва умумий даромадлар ўсишда давом этган бўлса, туғилиш даражасининг пасайиши, ажралишлар сонининг ортиши ҳамда ташқи миграция сальдосининг манфийлиги демографик жараёнларда янги тенденциялар шаклланаётганлигини кўрсатади. Шу билан бирга, аҳоли даромадлари, иш ҳақи ва иқтисодий фаоллик кўрсаткичларининг ўсиши демографик барқарорликни қўллаб-қувватловчи муҳим омиллар сифатида намоён бўлмоқда.

Тадқиқот натижалари асосида қуйидаги таклифлар илгари сурилди:

Биринчидан, туғилиш даражасида кузатилаётган пасайиш тенденцияларини ҳисобга олган ҳолда ёш оилаларни ижтимоий ва иқтисодий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш механизмларини такомиллаштириш мақсадга мувофиқ. Хусусан, имтиёзли ипотека дастурлари кўламини кенгайтириш, болали оилалар учун ижтимоий қўллаб-қувватлаш чораларини ривожлантириш ҳамда мактабгача таълим

муассасалари қамровини ошириш оилалар фаровонлигини юксалтиришга хизмат қилиши мумкин.

Иккинчидан, аҳоли саломатлигини яхшилашга қаратилган профилактик тиббий хизматлар қамровини кенгайтириш, юрак-қон томир ва онкологик касалликларни эрта аниқлаш амалиётини ривожлантириш ҳамда соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш аҳолининг ўртача умр давомийлигини оширишга ижобий таъсир кўрсатади.

Учинчидан, никоҳлар сонининг қисқариши ва ажралишлар улушининг ортиши шароитида оила институтининг ижтимоий аҳамиятини кучайтиришга қаратилган чора-тадбирларни кенгайтириш мақсадга мувофиқ. Бу борада ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш дастурлари, психологик маслаҳат хизматлари ва оилавий қадриятларни тарғиб қилиш тадбирлари ижобий натижалар бериши мумкин.

Тўртинчидан, ташқи меҳнат миграцияси таъсирини юмшатиш нуқтаи назаридан юқори даромадли иш ўринларини кўпайтириш, аҳолининг касбий ва рақамли кўникмаларини ривожлантириш ҳамда юқори малакали мутахассисларни қўллаб-қувватлашга қаратилган иқтисодий рағбатлантириш механизмларини такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади.

Бешинчидан, ҳудудлар ўртасидаги иқтисодий ва демографик тафовутларни қисқартириш мақсадида аҳоли ўсиши юқори бўлган ҳудудларда ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш, иқтисодий фаоллик нисбатан паст ҳудудларда эса инвестициявий жозибадорлик ва тадбиркорлик муҳитини яхшилаш демографик мувозанатни сақлашга хизмат қилиши мумкин.

Олтинчидан, демографик сиёсатни шакллантириш жараёнида статистик мониторинг ва демографик прогнозлаш усулларида кенг фойдаланиш аҳоли сони, ёш таркиби ва миграция жараёнларидаги эҳтимолий ўзгаришларни олдиндан баҳолаш имкониятини кенгайтиради.

Еттинчидан, аҳоли даромадларининг ўсишига кўмаклашувчи омилларни рағбатлантириш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаоллигини қўллаб-қувватлаш ҳамда бандлик имкониятларини кенгайтириш демографик барқарорликни мустаҳкамловчи муҳим иқтисодий омиллардан бири сифатида намоён бўлади.

Умуман олганда, мазкур таклифларнинг амалиётга татбиқ этилиши демографик ривожланиш самарадорлигини ошириш, инсон капиталини юксалтириш ва мамлакатнинг узоқ муддатли ижтимоий-иқтисодий тараққиёти учун қулай шарт-шароитлар шаклланишига хизмат қилиши мумкин.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 2 июндаги ПФ-91-сон “Иш ҳақи, пенсиялар, стипендиялар ва нафақалар миқдорини ошириш тўғрисида”ги Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2025 йил январь–декабрь. – Тошкент, 2026.
3. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Аҳолининг умумий даромадлари бўйича статистик тўпلام. 2025 йил. – Тошкент, 2026.
4. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Ўртача ойлик номинал ҳисобланган иш ҳақи бўйича маълумотлар. 2025 йил. – Тошкент, 2026.
5. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Корхона ва ташкилотлар демографияси бўйича маълумотлар. 2026 йил 1 январь ҳолатига. – Тошкент, 2026.
6. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Саноат статистикаси маълумотлари. 2025 йил. – Тошкент, 2026.
7. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги статистикаси. 2025 йил. – Тошкент, 2026.
8. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Инвестиция ва қурилиш ишлари бўйича статистик маълумотлар. 2025 йил. – Тошкент, 2026.
9. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Хизматлар соҳаси статистикаси. 2025 йил. – Тошкент, 2026.
10. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Транспорт ва алоқа соҳаси бўйича маълумотлар. 2025 йил. – Тошкент, 2026.
11. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Ташқи иқтисодий фаолият статистикаси. 2025 йил. – Тошкент, 2026.
12. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Кичик тадбиркорлик статистикаси. 2025 йил. – Тошкент, 2026.
13. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Демографик ҳолат бўйича расмий маълумотлар. 2025 йил. – Тошкент, 2026.
14. Coleman D. Demographic Transition Theory and Population Change. – Oxford University Press, 2019.
15. Қурбонова М. Ўзбекистонда демографик jarayonlar evolyusiyasi va dinamikasining ijtimoiy-falsafiy tahlili // ACTA NUUz. – 2025. – №1.4.1. – Б. 117–119.
16. Салимов Ш.Ю. Демографические процессы в Республике Узбекистан и их особенности // География: природа и общество. – 2021.
17. Саидмуродова М. Демографическая ситуация в Узбекистане – важный фактор социально-экономического развития (1991–2023 гг.) // Взгляд в прошлое. – 2024.

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

